



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
TARIX FAKULTETI**

**O`ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

**“O`zbekistonda to`qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari tarixi”  
mavzusidagi**

# **Битирув малакавий иши**

Bajardi: Tarix ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

4-kurs talabasi Erdonova Nilufar Toshtemirovna

---

ILMIY RAHBAR:

t.f.n.O'.K. Xudoyqulov

---

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi.

\_\_\_\_\_ sonli bayonnoma « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2013 yil

**Termiz**

**2013 yil**

# **Mavzu: O`zbekistonda to`qimachilik va engil sanoat mahsulotlari tarixi.**

Kirish.

Adabiyotlar tahlili.

I.Bob. O`zbekistonda to`qimachilik va engil sanoatning ishlab chiqarishi va tarixi.

I. O`zbekistonda to`qimachilik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishi.

II.O`zbekistonda mustaqillik yillarida o`kazilgan iqtisodiy islohotlar natijasida sanoatning o`rni.

II.Bob. Noto`qima mato va buyumlarni ularni O`zbekistonda ishlab chiqarish. Xorijiy texnologiya.

I.O`zbekistonda to`qimachilik sanoatiga ilg`or xorijiy texnologiyani joriy etish.

II.O`zbekiston paxtasi va to`qimachilik korxonalarini jahon nigohida.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.

## **Kirish.**

**Mavzuning dolzarbligi:** Mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar keng miqyosda islohotlarning amalgam oshirilish tufayli jamiyatning tubdan o`zgarishi, yangi ijtimoiy tuzumning shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov milliy mafkuraning shakllanish jarayonida tarix fanining o`rniga yuksak baho berib : “milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba – bu haqqoniy yoritilgan tarixdir ”deb ko`rsatgan edi. Shuningdek, Prezident tarixning inson va jamiyat taraqqiyotidagi roliga baho berib : “ O`z tarixini bilmaydigan kecagi kunini unutgan millatning kelajagi yo`q Bu haqiqat kishilik tarixida ko`p bora o`z isbotini topgan ” deb ta`kidlaydi.

To`qimachilik sanoati – yengil sanoatning tabiiy va sun`iy tolalardan turli gazlama ip va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladigan yirik tarmog`i. U ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish va aholi ehtiyojini qondirishda muhim rol o`ynaydi. To`qimachilik sanoati to`qimachilik xomashyosidan ip gazlama, zig`ir tolasidan to`qish, jun, shoyi, noto`qima materiallar, to`qimachilik, attorlik, trikotaj va boshqa sohalarni o`z ichiga oladi. Bu mulohazalardan kelib chiqib, O`zbekiston hududida to`qimachilik va yengil sanoat trixini o`rganishda sovet davridagi sanoat sohasida erishilgan natijalar yutuqlar tub mohiyatini tarixiy jihatdan xolisona tahlil etish ushbu mavzuning dolzarbligini asoslaydi<sup>1</sup>.

Shukurlarkim, istiqlol tufayli yurtboshimiz Islom Karimov sa'y-harakatlari bilan O'zbekiston tarixini o'rganishga e'tibor keskin o'zgardi. Prezidentimiz tarixchi olimlarga murojaat qilib, haqqoniy tariximizni tiklashga, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishga chaqirdi. O'quv yurtlarida Vatani-miz tarixi keng va chuqur o'rganilishiga imkoniyat tug'ildi, yoshlarimizda haqiqiy tarixiy ongni shakllantirish uchun zarur sharoit yaratildi. Yurtga hurmat uning o'tmishini o'rganish va bilishga bog'liqligi yana bir bor isbot etildi.

---

<sup>1</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o`zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O`zbekiston. 2000 – yil

O'tmishni o'rganish, uni idrok etish, tarix saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqara bilish har bir ma'rifatli inson burchidir. Moziyni tahlil eta bilish kishiga bugunni baholash, anglash, kelajakka ziyraklik bilan nazar tashlash imkonini beradi. Tarixiy ong Vatan o'tmishini idrok etish, o'z xalqi va mamlakatini istalgan joyda va istalgan darajada boshqalarni tanishtira olish uchun uquv desak to'g'ri bo'lar. Tarixiy tafakkur bugun ongli faoliyat ko'rsatishning muhim omillaridan biridir. Shuning uchun ham haqiqiy insonga tarixiy xotira zarur. Prezidentimiz Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan ma'nodor ibora mazmunini mahorat bilan yoritib bergan edilar<sup>2</sup>.

Xolis tariximizni yaratishga bu qadar katta e'tibor berish bejiz emas. Chunki u ulkan tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O'z vatanini, xalqini, umuman inson o'tmishini idrok etish kishida vatanparvarlik hissini uyg'otadi, o'zlikni anglash, insoniylik fazilatlar, milliy madaniyat, an'ana, udumlar ma'nosini bilish, qadriga yetishni o'rgatadi.

Moziyga nazar tashlasak, uning bir qator muhim, ibratli jihatlari nigohimiz oldida yaqqol gavdalanadi. Tarix xalqimiz hayotida asrlar davomida peshlangan qadriyatlarimiz negizini, mentalitetimiz asosini tashkil etadi va milliy istiqloq g'oyasining muhim manbai sifatida namoyon bo'ladi. Islom Karimov "Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba — bu haqqoniy yoritilgan tarixdir. Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizini anglab bo'lmaydi. Chunki mafkuraning falsafiy asos-lari o'z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug'ilgan", deb ta'kidlagan edilar<sup>3</sup>.

Davlatimiz rahbari aytganlaridek, ma'rifatli, ma'naviyati yuksak odam, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yuruvchi inson, albatta, o'z tarixini yaxshi bilgan bo'lishi darkor. Chunki, tarixiy xotirasi bor inson — irodali inson. Jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Demak, yurtimiz

---

<sup>2</sup> Karimov I. Milliy istiqloq mafkurasi – halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent. O'zbekiston. 2000. B-34.

<sup>3</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O'zbekiston. 2000 – yil

fuqarolarida tarixiy ongni shakllantirish muhim zaruratdir<sup>4</sup>. Zero, tarix — munawar ko'zgu, tafakkur bulog'i. Uni idrok etib ish qilmoq xayrli va kelajakka umid bilan qarab samarali mehnat qilish kafolatidir. Xullas, tarixni o'rganish ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini idrok etgan komil inson omili desak o'rinli bo'ladi

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Maqsadi:** Ushbu Bitiruv malakaviy ishda mustaqil tadqiqot natijasida O'zbekiston tarixi fanida kichik ilmiy ish yaratish, kelajakda mana shu mavzni rivojlantirib yangi fan ma'lumotlarini to'plab, boyitib borishdan iborat. O'zbekistonda to'qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlaridan farqlanuvchi o'ziga xos muhim bir xususiyati mavjud, ya'ni u tarmoq korxonalarini moddiy texnika quvvatining doimo ma'naviy jihatidan yangilanib borishini taqozo etadi.

**Vazifasi:** Fundamental ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan fan yangiliklarini o'rganish, ularga tanqidu yondashish, kichik bo'lsada ilmiy hulosalar chiqarishdan iborat.

**Mavzuning dolzarbligi:** Tanlangan mavzu bo'yicha matbuot va jurnallarda yangiliklar berib borish, tadqiqot obekti va predmeti ushbu mavzuni yaratishda O'zbekiston hududida to'qimachilik va yengil sanoatning paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari O'zbekiston tarixi fanining ilmiy natijalari bitiruv malakaviy ishining obekti hisoblanadi.

**Davriy sanasi.** O'zbekistonda XX asrning 20 yillari va mustaqillik yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrlarda O'zbekistonda to'qimachilik va engil sanoat korxonalarining vujudga kelishi, ayniqsa, mustaqillik yillarida to'qimachilik va engil sanoatining rivojlanishi va bu korxonalarining moddiy texnika holatining rivojlantirilishi hukumat tomonidan to'qimachilik va yengil sanoatiga alohida e'tabor qaratilganligi shu jihatidan o'rganilayotgan mavzuga haqqoniy yondashish asosiy ilmiy usullardan hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning ahamiyati.** Ushbu mavzu olimlar va tadqiqotchlar tomonidan o'rganilgan sohalar biri bo'lsada, ushbu mavzuning o'rganilishi eng avvalo

---

<sup>4</sup> Karimov I. Yuksak manaviyat –engilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat. 2008. B-4.

mustaqillik yillarida to`qimachilik va yengil sanoatni kengroq yoritib berishga harakat qilingan. Mustaqillik davridan so`ng O`zbekiston tarixini yangidan yoritish masalasi qo`yilayotgan shu davrda biz keltirgn toqimachilik sanoati ma`lumotlari fan rivojlanishiga xizmat qiladi degan umiddamiz. Ushbu bitiruv malakaviy ishda to`qimachilik sanoatiga umumiy holda yondash oldik.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va tarixi.** Ushbu malakaviy ishni yoritishda 2 bob, xulosa qismidan iborat. Ushbu bitiruv malakaviy ishning adabiyotlar ro`yxati ilova qilingan.

Hajmi dan iborat.

**Taklif:** 1. O`zbekistonda aholining 60 foizidan ko`prog`i qishloqlarda yashashi natijasida sanoatni qishloqqa olib kirish kerak.

2. Qishloqlarimizda kichik - kichik korxonalarini qurish va aholini ish bilan ta`minlash yangi texnika , texnologiya, kadrlar axborotlar bilan ta`minlashi kerak.

3. Ishlab chiqarish mahsulotlarini ichki va tashqi bozorda sotish uchun kichik korxonalarining infrastrukturasini yaratish zarur.

**Adabiyotlar tahlili.** Ushbu bitiruv malakaviy ishda mavzu mustaqil boshlang`ich ilmiy tadqiqot bo`lib, O`zbekistonda matbuot hamda adabiyotlardan foydalaniladi. Asosan O`zbekistonda to`qimachilik sanoati tarixi, professor – o`qituvchilar ilmiy materiallari. Termiz 2002.75 – betdan kengroq foydalanganligi, “Sanoatda malakali mutaxassislar tayyorlash”, “Jamiyat va boshqaruv” . Toshkent. 2008 yil. 104-105-betlar. Gafarali M. Kasayev S. “Rivojlanishning o`zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi”. Toshkent. O`zbekiston. 1992 yil va ilmiy maqolalar, ilmiy monografiyalardan iborat bo`lib, ushbu mavzuga ta`alluqligina bo`lib qolmay asosiy adabiyotlar ro`yxatiga kiradi. Adabiyotlar bilan ta`minlash maqsadida shu fikrga keldikki, ushbu mavzu olimlar tomonidan o`rganilgan bo`lsa, biz ushbu mavzuni yanada manbalar bilan to`ldirishga harakat qildik. Shuning uchun ushbu mavzu O`zbekiston tarixini o`rganishga xizmat qiladi.

## **I. Bob: O`zbekistonda to`qimachilik va yengil sanoatning ishlab chiqarishi va tarixi.**

### **I. O`zbekistonda to`qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishi.**

To`qimachilik sanoati - yengil sanoatning tabiiy va sun`iy tolalardan turli gazlama, ip va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan yirik tarmog`i.

U ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish va aholi ehtiyojini qondirishda muhim rol o`ynaydi. To`qimachilik sanoati to`qimachilik va xom ashyosidan ip gazlama, zig`ir tolasidan gazlama to`qish, jun, shoyi, noto`qima materiallar, to`toqish, to`qimachilik – attorlik, trikotaj, kigiz- namat va boshqa sohalarni o`z ichiga oladi.

To`qimachilik sanoati mahsulotlari kiyin bosh, poyabzal ishlab chiqarishda, mebel, mashinasozlik sanoati, meditsinada va boshqada ishlatiladi.

O`zbekistonda to`qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish to`g`risida qisqacha tarixiy ma`lumotlar. O`zbekiston o`z to`qimachilik mahsulotlari bilan dunyoga qadimdan tanilgan.

Asrimizning 20 – yillarida O`zbekistonda mayday tarqoq hunarmandchiliklarni birlashtirib, sanoat asosida mahsulot ishlab chiqarish tashkil etilishi boshlandi<sup>5</sup>.

1928 – 1932 yillar O`zbekiston uchun sanoat inqilobining boshlanish davri bo`ldi. Shu yillarda O`zbekistonda 300 dan ortiq sanoat korxonalari barpo etildi. 1926 – yilda Farg`ona to`qimachilik fabrikasining dastlabki navbati ishlay boshladi. Korxonaning bu qismi 10.000 urchuqqa va 300 ta to`quv dastgohiga ega bo`lib, 2 va 3 navbatini ishga tushirishda u tajriba – namuna maktabi hamda tayanch bo`lib xizmat qiladi. Ko`p o`tmay fabrikani 2 – hamda 20.000 urchuq va 600 to`quv sanoatiga ega bo`lgan 3 – navbati ishga tushirilishi lozim edi. 1932 – yilga kelib fabrikaning 19900 urchug`i va 906 to`quv dastgohlari sifatli mahsulot bera boshladi. Agar fabrika 1930 – yilda 218,2 tonna ip yigirib, 2 mln metrdan ortiq gazlama chiqargan bo`lsa, 1932 – yilda esa 1377 tonna yigirilgan ip va 7 mln 565 ming metrdan ziyod gazlama ishlab chiqardi. Farg`ona viloyatida farg`ona to`qimachilik

---

<sup>5</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o`zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O`zbekiston. 2000 – yil

fabrikasi bilan bir qatorda kiyim – kechak uchun va tibbiyotda qo`llaniladigan gigroskopik paxta yetishtirib beruvchi korxonalar tashkil etildi.<sup>1</sup>

1927 - yilda Farg`onada qurilgan pillakashlik fabrikasi Respublikamizda ipakchilik sanoati yaratilishiga asos soldi. 1927 yilda Samarqandda, 1928 – yili Buxoro va Marg`ilonda pillakashlik korxonalari qurildi. Pillakashlik sanoatining barpo etilishi Respublikamiz xalqlari didiga mos shoyi gazlamalar to`qib chiqaradigan korxonalar qurilishini taqozo qiladi. Shu maqsadda shoyi to`qish korxonalari sanoatini barpo etishga kirishildi. Ana shunday korxonaning qaldirg`ochi 1930 – yilda ishga tushirilgan Samarqand shoyi fabrikasi.

O`zbekistonda pilla va paxta tolasi yetishtirish ham yuqori suratlarda bilan rivojlanadi. 1932 – yilda O`zbekistonda 241,2 ming tonna paxta tolasi, 399,1 tonna ipak etishtirildi. Shu yillari O`zbekistonda ip gazlama ishlab chiqarishning 56 marta, ipak gazlamalar ishlab chiqarishning 4,15 marta ko`paydi.

1928 – 1932 – yillari Respublikamizda to`qimachilik sanoatining keng rivojlanishi shu yerning o`zida ishlab chiqarishni taqozo qildi<sup>6</sup>.

“Tashselmash ” zavodi paxta tozalash zavodlari uchun kerakli bo`lgan uskunalarni ishlab chiqarishga kirishib, Respublikamizda to`qimachilik mashinasozligining ochilishiga asos soldi. O`zbekistonda to`qimachilik sanoatining rivojlanishi bilan bir qatorda, ana shu korxonalarini kadrlar bilan ta`minlash tadbirlari ham ko`rildi. To`qimachilik sanoati uchun juda zarur bo`lgan muhandislar texnik kadrlar tayyorlash ishi boshlab yuboriladigan bo`ldi. O`rta Osiyo politexnika va irrigatsiya institutida to`qimachilik bo`limi tashkil etilib, ana shu bo`lim asosida 1932 yilda to`qimachilik sanoati uchun muhandis texnolog tayyorlaydigan Toshkent to`qimachilik va Yengil sanoat instituti ishga tushirildi. 1933-1937 – yillar davrida O`zbekistonning industrial darajasini ko`tarish davom etadi. Bu yillar yana 359 – sanoat korxonalari ishga tushirildi. 1933-1937 –yillarda qurilgan to`qimachilik korxonalarining eng yirigi 1932 – yilning 6 mayidan boshlab, 1936 –yilda qurib bo`lingan Toshkent to`qimachilik kombinatining birinchi navbatidir. 1934 – yilda 8

---

<sup>6</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o`zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O`zbekiston. 2000 – yil



ta to'quv dastgohi Farg'ona to'qimachilik fabrikasidan keltirilgan kalava ipi bilan ishladi va Toshkent to'qimachilik kombinatining dastlabki mahsulotini bera boshladi<sup>7</sup>.

Shu yining o'zidayoq yigiruv fabrikasida 5000 urchuq, to'uv fabrikasida esa 204 to'quv dastgohi ishga tushirildi. 1935 – esa yilda 35630 urchuq ip, 1152 dastgoh esa gazlama bera boshladi. 1933-1937 yillarda Farg'ona yigiruv –to'quv fabrikasini yuzasidan ham ancha ishlar qilindi. Fabrika 1937 yilda 20380 urchuqqa ega bo'ldi. 1933 –yilda Qo`qon 1 yillik ishlab chiqarish quvvati 12 mln juft trikotaj paypoq ishlab chiqaradigan kombinat qurilishi boshlandi. Shuningdek paxta tozalash zavodlari ham qayta qurila boshlandi. Eski zavodlarning tola ajratkichlari havo yordamida ishlaydigan yangi apparatlar bilan almashtirildi. Chigitni , paxtani tola ajratuvchi zavodlarga omborlardan pnevmatik uzatish tashkil qilindi. 1937 – yilda O`zbekistonda 1932 – yildagi 41 o`ringa 55 ta paxta tozalash zavodlaridagi mavsumli 1937 –yilda kelib tugatildi va paxta tozalash zavodlari yil bo`yi ishlay boshladi.

Pillakashlik sanoatida ham xali mehnat unumdorligini va yalpi mahsulot ishlab chiqarishni ko`paytirish asosan eski uskunalarni yangi serunum uskunalari bilan almashtirish hisobiga amalgam oshdi. 1936 – yildan boshlab, pillakashlik fabrikalarida “Yulduz”, “Nakane” yapon uskunalari va markaziy bug`lashni tashkil qiluvchi “Chiba” mashinalari o`rnatildi. Marg`ilon va Buxoroda eski fabrikalar bilan yonma yon serunum yapon uskunalariga ega bo`lgan yangi korpuslar qurila boshladi. 2 1937 – yildayoq Marg`ilon ipak fabrikasining yangi korxonasida ‘Nakone’ sistemasidagi 264 ta mashina o`rnatildi. 1930 – yilda ishga tushgan Samarqand shoyi fabrikasi hali kam quvvatli bo`lib, uni qayta qurish lozim edi. Bu vazifa ham amalga oshirildi. 1937-yilga kelib, fabrika 125 dastgohga ega bo`lindi va ko`plab shoyi, beqasam ishlab chiqara boshladi. 1938-1942 yillarda 134 korxonalar ishga tushirildi, qator elektrostansiyalar, Chirchiq elektroximiya kombinati TTK ning 2-navbati ishga topshirildi.

---

<sup>7</sup> Sh.R.Marasulov. O`zbekiston to`qimachilik sanoati rivojlanishi. Toshkent. 1975 yil. 3-18 betlar.

Kombinatning 1- navbati satin va mmitkal gazlamalar ishlab chiqarishga moslab qurilgan bo`lsa , 2- navbatda o`rnatilgan uskunalar esa mayin satin, mayya, zefir, kashemir, sanoati uchun juda zarur bo`lgan muhandislar texnik kadrlar tayyorlash ishi boshlab yuboriladigan bo`ldi. O`rta Osiyo politexnika va irrigatsiya institutida to`qimachilik bo`limi tashkil etilib, ana shu bo`lim asosida 1932 yilda to`qimachilik sanoati uchun muhandis texnolog tayyorlaydigan Toshkent to`qimachilik va Yengil sanoat institute ishga tushirildi. 1933-1937 – yillar davrida O`zbekistonning industrial darajasini ko`tarish davom etadi. Bu yillar yana 359 – sanoat korxonalarini ishga tushirildi. 1933-1937 –yillarda qurilgan to`qimachilik korxonalarining eng yirigi 1932 – yilning 6 mayidan boshlab, 1936 –yilda qurib bo`lingan Toshkent to`qimachilik kombinatining birinchi navbatidir. 1934 – yilda 8 ta to`quv dastgohi Farg`ona to`qimachilik fabrikasidan keltirilgan kalava ipi bilan ishladi va Toshkent to`qimachilik kombinatining dastlabki mahsulotini bera boshladi. Shu yilning o`zidayoq yigiruv fabrikasida 5000 urchuq, to`uv fabrikasida esa 204 to`quv dastgohi ishga tushirildi. 1935 – esa yilda 35630 urchuq ip, 1152 dastgoh esa gazlama bera boshladi. 1933-1937 yillarda Farg`ona yigiruv –to`quv fabrikasini yuzasidan ham ancha ishlar qilindi. Fabrika 1937 yilda 20380 urchuqqa ega bo`ldi<sup>8</sup>. 1933 –yilda Qo`qon 1 yillik ishlab chiqarish quvvati 12 mln juft trikotaj paypoq ishlab chiqaradigan kombinat qurilishi boshlandi. Shuningdek paxta tozalash zavodlari ham qayta qurila boshlandi. Eski zavodlarning tola ajratkichlari havo yordamida ishlaydigan yangi apparatlar bilan almashtirildi. Chigitni , paxtani tola ajratuvchi zavodlarga omborlardan pnevmatik uzatish tashkil qilindi. 1937 – yilda O`zbekistonda 1932 – yildagi 41 o`ringa 55 ta paxta tozalash zavodlaridagi mavsumli 1937 –yilda kelib tugatildi va paxta tozalash zavodlari yil bo`yi ishlay boshladi.

Pillakashlik sanoatida ham xali mehnat unumdorligini va yalpi mahsulot ishlab chiqarishni ko`paytirish asosan eski uskunalarini yangi serunum uskunalar bilan almashtirish hisobiga amalgam oshdi. 1936 – yildan boshlab, pillakashlik

---

<sup>8</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o`zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O`zbekiston. 2000 – yil

fabrikalarida “Yulduz”, “Nakane” yapon uskunalari va markaziy bug`lashni tashkil qiluvchi “Chiba” mashinalari o`rnatildi. Marg`ilon va Buxoroda eski fabrikalar bilan yonma yon serunum yapon uskunalariga ega bo`lgan yangi korpuslar qurila boshladi. 2 1937 – yildayoq Marg`ilon ipak fabrikasining yangi korxonasiida ‘Nakone’ sistemasidagi 264 ta mashina o`rnatildi. 1930 – yilda ishga tushgan Samarqand shoyi fabrikasi hali kam quvvatli bo`lib, uni qayta qurish lozim edi. Bu vazifa ham amalga oshirildi. 1937-yilga kelib, fabrika 125 dastgohga ega bo`lindi va ko`plab shoyi, beqasam ishlab chiqara boshladi. 1938-1942 yillarda 134 korxonada ishga tushirildi, qator elektrostansiyalar, Chirchiq elektroximiya kombinati TTK ning 2-navbati ishga topshirildi.

Kombinatning 1- navbati satin va mmitkal gazlamalar ishlab chiqarishga moslab qurilgan bo`lsa, 2- navbatda o`rnatilgan uskunalarda esa mayin satin, mayya, zefir, kashemir, shifon, natuk, volte, vual, krep, malmal va boshqa xildagi va jilodor gazlamalarni to`qishga mo`ljallab o`rnatildi. Bu fabrika 1940 – yilning yanvaridan mahsulot bera boshladi. O`sh yili TTK da 9861 tonna kalava ip yoki 87272 ming metr tayyor gazlama ishlab chiqarildi. Agar bu raqamni 1935 yilga taqqoslasak, korxonada mahsulot yetishtirish 7,7 barobar ko`payganligini ko`ramiz. Farg`ona – yigiruv to`quv fabrikasining 3 navbati shu davrgacha qurib bitkazilib, 47220 urchuqqa teng quvvat bilan ishlay boshladi. Shu yillari Qo`ng`rot, G`ijduvon, Chinoz, Xiva paxta tozalash to`la ishga tushirildi. 1938-1942 yillar mavjud pillakashlik fabrikalarining tazi 10 tutqichli qilib rekontruksiya qilindi. 1939 yildan boshlab esa 20 tutqichli joriy etila boshlandi. Yaponiyaning “Xonda” sistemasidagi 118 tazli Buxoro pillakashlik fabrikasining 2 navbati ishga tushirildi. Marg`ilon pillakashlik fabrikasida esa krep tipidagi turli tuman shoxi gazlamalar ishlab chiqarish joriy etildi. Paxtachilikning yildan-yilga rivojlanishi, to`qimachilik sanoati toza paxta tolasi yetkazib berish zarurligini Respublikamizdagina qator sanoat korxonalari barpo etishni taqazo etadi. 1.

1940 - yilda mavjud barcha korxonalarda 532000 tonna paxta tolasi, 693 tonna ipak, 107,4 mln metr ip-gazlama, 4 mln 534 ming metr shoyi gazlama, 86350 juft

paypoq, 2520 ming metr ichki trikotaj va 696 ming dona ustki trikotaj va 696 ming dona ustki trikotaj buyumlari ishlab chiqarildi.

1941- 1945 yillar momaynida O`zbekistonga Yevropadan uda ko`p korxonalar ko`chib keltirildi. Bundan tashqari Farg`onada yana boshqa alohida yigiruv fabrikasi barpo qilindi. Shu yillarda respublikamizda eng yirik shoyi sanoati, Marg`ilon ipak kombinati bunyod etildi, yigiruv, paypoq to`quv kombinati kengaytirildi. 1. Samarqandda yangi trikotaj fabrikasi barpo etildi. Marg`ilon shoyi kombinatida 1954-55 –yillarda 500 ta yangi to`quv dastgohlari, ko`pgina yigiruv urchuqlari va pardozlash mashinalari o`rnatildi. Agar ishlab chiqarish hajmini 1932 – yildan 1954 yilgacha qismini olib qarajak, 23 yil momaynida shoyi gazlamalar ishlab chiqarish 40 martadan ortiq o`sganligini ko`ramiz. Ip gazlama sanoatida ham sezilarli o`zgarishlar ro`y berdi. Masalan, 1953 – yilda TTK uskunalarning ish unumi 1945 – yilga nisbatan ip yigirish bo`yicha 33 % ga, to`quvchilik bo`yicha 80% ga o`sdi. TTZ ing 3 - yigiruv fabrikasi 1952 –yilga kelib dastlabki mahsulotlarni bera boshladi. Trikotaj buyumlari ishlab chiqarish ham ko`paydi. 1956 –yilda yilda O`zbekistonda 1940 yildagi 2520 ming dona o`rniga 9004 ming dona ,ya`ni 3,5 marta ko`p trikotaj buyumlari ishlab chiqardi. O`zbekistonda to`qimachilik sanoati qishloq xo`jalik xom ashyosi bilan bir qatorda sintetik va sun`iy tolalardan ko`proq foydalandi. Sintetik va sun`iy tolalar ishlab chiqarish 7 yil mobaynida 9 barobarga yaqin o`sdi.

“Tashtekstilmash ” zavodining ishlab chiqarish quvvati ortib borishi to`qimachilik sanoatimiz rivojiga samarali ta`sir etdi. Bu zavodda 1958 yilda 337 ta yugiruv mashinasi ishlab chiqarilgan. respublikamiz to`qimachilik korxonalari ushbu yillarda urush extiyojlarini qondiradigan maqsadda ishlab chiqarishga kirishdilar. Marg`ilon, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarning pillakashlik fabrikalari esa parashyut sanoati uchun zarur bo`lgan ipak gazlamalar ishlab chiqara boshladi. 1948 – yili Toshkent trikotaj fabrikasi ishga tushdi. Qo`qon ip yigiruv – paypoq to`quv kombinati kengaytirildi. Samarqandda yangi trikotaj fabrikasi ishga tushirildi. Shu yillarda O`zbekistonda yirik to`qimachilik korxonalarini tashkil etish bilan birga, O`zbek xalqining iftixori xonatlas matolarini ishlab chiqarish, hunarmandchilikka ham katta e`tibor berildi. 60-yillarda tarqoq artellar

asosida Marg'ilon atlas ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.1.14 jildli O`zbekiston sovet ensiklopediyasi.130-131 bet.

Asrimizning 50 – yillarida dunyoda kimyoviy tolalarni ishlab chiqarish hajmini oshirishni taqazo etadi.60 – yillarning o`rtalarida Namanganda “Kastyumbob va shtapel gazlamalar ishlab ishlab chiqarish ” kombinati qurilishi boshlandi. Shu yillar O`zbekistonda trkotaj ishlab chiqarish ham rivojlandi.Toshkentda “Malika” trikotaj ishlab ciqarish birlashmasi,Andijonda ichki trikotaj buyumlari fabrikasi va boshqalar tashkil etildi<sup>9</sup>.

O`zbek xalqining qadimdan dunyoga mashhur gilamlar ishlab chiqargan to`quvchilari ma'lum edilar.70 yillarda Xivada gilam kombinati ishga tushurildi.Shu yillarda yana bir yirik ip gazlamalar ishlab chiqarish korxonasi,Buxoro to`qimachilik kombinatining birinchi navbati ishga tushdi.Kombinatning ikkinchi navbati 80 – yillarning boshida ishga tushib unda o`sha paytning eng ilg`or to`qimachilik texnologiyasi ishlatilgan.

70-80 –yillarda umuman O`zbekistonda ko`plab to`qimachilik korxonalari tashkil etildi.Respublikada yetishtirilgan paxta tolasini ko`proq qayta ishlash maqsadida Andijonda ip gazlamalar ishlab chiqarish kombinati, viloyatlarning kichik shaharlari va tumanlar markazlarida nisbatan kichik quvvatli yigiruv,to`quv fabrikalari ishga tushurildi.

80 –yillarning o`rtalarida boshlangan “Qayta qurish ”siyosati, ittifoqni tarqatilishi bilan bog`liq Respublikalararo iqtisodiy aloqalarning uzilishi to`qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning kamayishiga sabab bo`ldi.Sobiq ittifoqning ko`plab Respublikalarida mahsulot ishlab chiqarish ikki va undan ko`proq marta kamayganligini,Rossiyaning 1997 – yil 3- sonli “Tekstilnaya promishlennost” jurnalida chop etilgan quyidagi jadvalda ko`rishimiz mumkin.

---

<sup>9</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o`zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O`zbekiston. 2000 – yil

Davlatlar	1996-y,195 yilga nisbatan ishlab chiqarish mahsulotlarining hajmi, %		
	Gazmollar	Trikotaj mahsulotlari	Paypoq-naski mahsulotlari.
Ozarbayjon	41	28	24
Belarus	103	97	94
Guruziya	61	38	39
Qozog'iston	90	37	49
Qirg'iziston	126	67	143
Rossiya	80	56	74
Tojikiston	56	36	77
O'zbekiston	97	141	104
Ukraina	65	47	58

Jadvaldan ko`rinib turibdiki 1995 –yilga nisbatan 1996 –yilda Ozarbayjonda ishlab chiqarish 3,5 marta, Paypoq naski mahsulotlari esa 4,2 marta kamayib ketgan.<sup>1</sup>  
1.Assosatsiya “O`zbeklegprom” Toshkent 1998 yil<sup>10</sup>.

Boshqa Respublikalarda ham barcha jadvaldagi ko`rsatkichlarning kamayganligini ko`rib turibmiz. Faqat O`zbekistonda gazlama ishlab chiqarish 3% gina kamayib boshqa to`qimachilik mahsulotlarini ko`payganligini, davlatimizning kuchli iqtisodiy siyosatining natijasi bo`lganligi ko`rinib turibdi.

O`zbekistonning mustaqillikka erishishi mamlakatimizda to`qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yangi sifat o`zgarishi bosqichi bilan bog`liq bo`lyapti.

Respublika hukumati va bevosita Prezedent I.A.Karimov e`tabor va yordamligida tarmoqda deyarli hamma korxonalarda xususiyashtirish dasturiga ko`ra

<sup>10</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o`zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O`zbekiston. 2000 – yil

aniq turdagi xissadorlik jamiyatlari tashkil etilyapti. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 29 aprel 1996 – yil 166 sonli “Yengil va mahalliy sanoatlariga davlat yordami to`g`risida ”gi va 27 iyun 1997- yil 326 sonli “O`zbek yengilsanoat uyushmasi bilan chet el kompaniyalarini, qo`shma korxonalarini joriy etish tadbirlari” to`g`risida qarorlari yangi quvvatlarning qurilishini tugatish, mavjud korxonalarda texnika va texnologiyalarni yangilash dasturi bo`ldi. Dasturga ko`ra dunyodagi ilg`or texnologiyalarni keltirish, chet el investitsiyasini jalb etish, bank kreditlarida foydalanib dunyo bozorida xaridorgir mahsulotlar chiqarishga, eksport imkoniyatlarini kuchaytirib, yuqori sifatli ayniqsa bolalar assortimentini ko`paytirish mo`ljallangan. Bu qarorlarning bajarilishi chet el investitsiyasini jalb etish 1996 yilda 81.4 mln AQSh dollari, 1997 yilda 90,1 mln AQSh dollari tashkil etdi. 1998 yilda investitsiya 1995 yilga nisbatan 3.7 marotaba oshib, 81,4 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Bulardan tashqari 1995-1997 yillarda Respublikamiz o`z ichki imkoniyatlaridan foydalanib 58,0 mln AQSh dollarini to`qimachlik sanoatining rivojlanishiga o`zlashtirdi. 1998 –yilda Respublika Yengil va to`qimachilik sanoatida 15 ga yaqin qo`shma korxonalar tashkil etilib, ularda sohani umumiy hajmidan 10-15% mahsuloti ishlab chiqarildi<sup>11</sup>. O`zbekiston to`qimachilik sanoatining ishlashidagi asosiy yo`nalishi istemolchilarga ishlash, marketing tadqiqotlar asosida dunyo bozoriga kirish, ilg`or chet el firmalari bilan hamkorlikda soha korxonalariga eng yangi texnologiya va uskunalarni joriy etish<sup>12</sup>. Quyidagi jadvalda “O`zbekengilsanoat ”uyushmasi tizimidagi mahsulotlarni 200 yilgacha istiqbol rivojlanishi keltirilgan.

Mahsulot turi	O`lchov birligi	1997 hisob	1998 hisob	1997 ga nisbatan o`s sura	2000 yil reja	1997ga nis o`s surati
Paxta tolasidan yigirilgan ip	tonna	102750	137513	133,8	165000	160,8

<sup>11</sup> A.Karimov “O`zbekiston 21 asr bo`sag`asida ”1997 yil. Toshkent

<sup>12</sup> O`zbekiston sanoatining yangi istiqbollari. Termiz shahar 1996 yil .87 b.

Ip gazlama	mln.kv.m	414,0	460	111,1	520,0	125,6
Gilam va gilam mahsulotlari	Ming.kv.m	1155	1350	116,9	1650	142,9
Xom ipak ipi	tonna	1250	1450	116,0	1600	128,0
Shoyi gazlamalar	Ming.kv.m	151000	29500	195,4	32000	21 marta
Trikotaj mahsulotlari	Ming dona	46000	53810	117,0	65800	143,0
Paypoq – naski mahsuloti.	Ming juft	58000	65500	112,9	68000	117,2
Yumshoq teri mahsuloti.	Mln.kv.dtsm	43,2	62	181,3	110,0	3,2 marta
Poyabzal	Ming juft	5450	5800	124,8	8800	161,5

**O`zbekiston shoyi va ipak ishlab chiqaruvchi korxonalari.**

- 1.Marg`ilon ipak kombinati.
- 2.Marg`ilon atlas ishlab chiqarish birlashmasi.
- 3.Farg`ona pillakashlik fabrikasi.
- 4.Qo`qon shoyi to`quv fabrikasi.
- 5.Izboskan shoyi to`quv fabrikasi.
- 6.Shahrixon shoyi to`quv fabrikasi.
- 7.Namangan abrli gazlamalar kombinati.
- 8.Kosonsoy shoyi to`quv fabrikasi.
- 9.Samarqand shoyi ishlab chiqarish fabrikasi.
- 10.Shahrisabz pillakashlik fabrikasi
- 11.Buxoro pillakashlik fabrikasi.
- 12.Xorazm shoyi ishlab chiqarish birlashmasi.



Gilam – badiiy to`qima buyum 1.Yozma tarixiy manbalar va arxeologik qazishlar gilamning qadim zamonlardan mavjud bo`lganligini ko`rsatadi.Xorazm arxeologik qazishmalar paytida mil.avv.I mingyillikda mansub gilamlar topilgan.Bobil,Assuriya,Midiyada keyinroq Hindiston,Eron,Turkiyada O`rta Osiyoda to`qilgan rangdor gilamlar qadimdan mashhur bo`lgan. Mamlakatimiz xalqlari o`rtasida ro`zg`or ashyosi va badiiy buyum sifatida keng tarqalgan.Gilamchilik – gilam to`qish kasbi, badiiy to`qish turi hunarmandchilik sohalaridan biri.Qadindan ayollar orasida keng tarqalgan hunar sifatida mashhur. Ayniqsa chorvachilik bilan shug`ullanadigan xalqlar orasida keng tarqalgan<sup>13</sup>.

Oldinlari gilamni o`simlik tolasidan, jundan va ipakdan tayyorlangan. Hozir gilam ishlab chiqarishda sun`iy va sintetik tolalaridan ham keng foydalanilyapti.Gilam o`tmishda yer bag`irlab yotiq holda o`rnatilgan pastak dastgohlarda qo`lda to`qilgan Gilam yaxshi rivojlangan joylarda esa vertikal (tik) o`rnatilgan to`quv dastgohlarining ancha mukammallashtirilgan.va bir necha to`quvchi yonma – yon o`tirib birdaniga to`qiyveradigan keng g`altakli xillari yaratilgan.

Qo`lda gilam to`qish O`rta Osiyoda,ayniqsa,Turkistonda keng rivojlangan.bu g`oyat sermashaqqat ish bo`lib, yaxshi mutaxassis 1 m2 tukli gilam to`qish uchun bir oy chamasida vaqt sarflaydi.Shuning uchun ham qo`lda to`qilgan gilamlar nisbatan qimmat bo`ladi.

Gilamlar kalta tukli (3-7 mm) va uzun tukli (8-17mm) qilib to`qilgan.O`zbekiston gilamlarni qo`y va tuya junlaridan,paxta ipi va ipak iplaridan to`qiladi.Tukli gilamlarni to`qish texnikasi ayniqsa murakkab.Ularni to`qishda asos (zamin)tanda va arqoq iplaridan tashqari, tuk tanda va qo`shimcha siquvchi tanda iplari ishlatiladi.Bu tuk hosil qilish eski dastgohlarda faqat qo`lda bajarilar edi.Asrimizning 30-yillaridan korxonalar paydo bo`ldi.Tukli gazlamalarning naqshi yoki guli sanama iroqiga o`xshatib, rangli iplarni nusxaga qarab terish asosida

---

<sup>13</sup> .O`zbekistonda to`qimachilik sanoati tarixi.Termiz sh.2002 – yil.75 –bet.

yaratiladi, biroq naqsh kashtada kesishgan bahyalar miqdoriga bog'liq bo'lsa, tukli gilamda bog'langan bandlarning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Tuk hosil qilish usuliga qarab gilam ishlab chiqarish to'quv dastgohlarining ikki turidagisimavjud. Birinchi usul "Xivichli" usul bo'lib, unda ma'lum turdagi gilamni ip arqog'i bilan ketma – ket xomuzaga ichakli xivich tashlanib, so'ngra xivichlar gilamdan tortib olish jarayonida tuk hosil qilinadi. 1. Ikkinchi usulda to'quv dastgohida 3 ta tanda iplari o'rnatiladi. Qatlamlar o'zaro tuk tanda vositasida bog'lanib, so'ngra qatlamlar orasiga maxsus pichoqlar kirib ularni kesib ajratadi, natijada dastgohda ustma-ust joylashgan ikki polotnali gilam hosil bo'ladi. Ikki polotnali gilam ishlab chiqarish usuli eng serunum hisoblanadi va zamonaviy korxonalarda ushbu dastgohlarda o'rnatilgan. O'zbekistonda sanoat asosida, zamonaviy texnologiyaning gilam kombinati 70 yillarning o'rtalarida ishga tushirilgan xiva gilam kombinati hisoblanadi. Kombinat tarkibidagi yigiruv korxonasi paxta tolalaridan yigirilgan ip ishlab chiqaruvchi korxonalardan farqi, yigiruv korxonasining tarkibida tola bo'yovchi sexning mavjudligi. Buxoro ipak gazlamalar kombinatida ishlatiladigan rangli iplar, yigirilgan ip o'raglan maxsus bobinalarda bo'yalsa, Xivada tolalar bo'yolib, ularda rangli ip ishlab chiqariladi<sup>14</sup>.

Bu korxonaning ip ishlab chiqarish texnologiyasini murakkablashtiradi. Gilam kombinati to'quv korxonasining o'ziga xosliklari mavjud zamin va siquvni tanda iplari 5-6 qavat pishirilganligi uchu oxorlanmasdan, bevosita tandalsh mashinasida, to'quv galtaklari olinadi. Arqoq ipi ham yo'gon bo'lganligi uchun maxsus o'rovchi avtomatlarda olinadi. Tuksiz gilam mahsulotlari – polos, sholchalar, oddiy to'quv dastgohlarida maxsus tayyorlangan tanda va arqoq iplarini ishlatib tayyorlanadi.

Keyingi tillarda gilam mahsulotlarining yangi usuli, to'qima asosiga tuk yoki ip xalqalaridan yopishtirish usulida tayyorlash texnologiyalari yaratilgan. Shu usulda gilam mahsulotini ishlab chiqarish Toshkent viloyatining Olmaliq shahrida tashkil etilgan.

---

<sup>14</sup> Sanoat ishlab chiqarish: yutuqlar va muammolar. Jamiyat va boshqaruv. Ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, iqtisodiy jurnali. Toshkent. 2008 y 19-20 betlar.

Trikotaj sanoati to`qimachilik sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biri. Trikotaj sanoati korxonalarida paypoq-naski va qo`lqoplar, ichki va tashqi trikotaj kiyimlar, sharflar hamda sanoat va tibbiyotga oid mahsulotlar ishlab chiqariladi. a keldi. Ozbekistonda trikotaj sanoatining rivojlanishi avvalo Qo`qon yigiruv paypoq to`quv kombinatini 1930 yillarning oxirida ishga tushishi bilan boshlangan. Keyinroq Farg'onada hamda Toshkent trikotaj buyumlari fabrikalari ishga tushuriladi. 1940 yilda Bu korxonalarda 86350 ta juft paypoq, 2520 juft paypoq, 2520 ming dona ichki trikotaj va 696 ming dona ustki trikotaj buyumlari ishlab chiqarildi. 1945 yilda Toshkent tikuvchilik fabrikasi asosida trikotaj fabrikasi tashkil etildi. Unda 1960 yilda 4572 ming dona ichki va 1597 ming dona ustki trikotaj kiyimlari ishlab chiqarildi. Bulardan tashqari Respublikamizda 1952 – yilda Samarqandda, 1960 yilda Toshkentda ustki trikotaj kiyimlar fabrikalari tashkil etildi. Keyinchalik Toshkentda ichki va ustki trikotaj kiyimlari ishlab chiqaruvchi fabrikalar birlashtirilib “Malika” trikotaj ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. 1961 yilda Buxoro trikotaj fabrikasi qayta jihozlanib, yirik korxonaga aylantirildi. 1968 yil Andijonda yana bir yirik ichki trikotaj kiyimlari ishlab chiqaruvchi trikotaj fabrikasi tashkil etildi. 1970 yillarning o`rtalarida Jizzax ustki trikotaj kiyimlar ishlab chiqaruvchi, 80- yillarning o`rtasida esa yana Jizzaxda paypoq naski mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi fabrikalar tashkil etildi. Gazlamalar ishlab chiqarish, jun gazlamalar ishlab chiqarish korxonalariga bo`linadi. Trikotaj ishlab chiqaradigan mahsulotiga qarab ichki trikotaj bo`limlari ishlab chiqarish, ustki trikotaj buyumlari va paypoq naski mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalariga bo`linadi. Ularning har birida turli tolalardan olingan iplar ishlatilishi mumkin. Ayniqsa usti trikotaj buyumlari korxonalarida paxta tolalaridan yigirilgan iplar keng ishlatiladi. Trikotaj ishlab chiqarish korxonalarining yanada bir o`ziga xoslik alomati, uning tarkibiga ko`ra ko`p xollarda tikuv korxonasining mavjudligi. Ya`ni tayyor ichki yoki ustki buyumlarni ishlab chiqarishligi. 1975 yilda Respublika trikotaj sanoatida 29050 ming dona (1960 yildagidan 4,9 baravar ko`p) icki kiyimlar, 12284 ming dona (1960 yildan 2,0 baravar ko`p) ishlab chiqarildi. Bunga yuqori yuqori ishlab chiqarishga erishishda, viloyatlar markazidagi fabrikalar bilan, kichik shaharlarda ishga tushgan fabrikalarning hissasi

katta bo'ldi.ular jumlasiga Oltinko'l trikotaj matolari, Qorasuv paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish fabrikasi, xo`jabod trikotaj babrikasi va boshqalar.Keyingi yillari tashkiletilayotgan qo`shma korxonalar tarkibida,ko`p xollarada albatta trikotaj ishlab chiqarish fabrikalari mavjud.

## **II. O'zbekistonda mustaqil yillarda o'tkazilgan iqtisodiy islohatlar natijasida sanoatning orni.**

Muvaffaqiyatli o'tkazilgan iqtisodiy islohatlar O'zbekistonning sanoati rivojlangan va sanoat mahsulotlarini ko'plab eksport qiladigan davlatga aylandi. Islohotlar boshlangandan keyingi yillarning yakunlari shundan dalolat beradiki, o'tish davrining qiyinchiliklariga qaramay respublikada ilm-fanga asoslangan zamonaviy sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirish uchun asos yaratildi, eksportga mo'ljallangan va yuksak texnologiyaga asoslangan industriyaning poydevori tiklandi.

Uchinchi ming yillik bo'sag'asida O'zbekiston iqtisodiyoti bozor islohotlarini o'tkazish sohasida ortirilgan ijobiy tajriba sharoitida rivojlanib bormoqda. Uning istiqbol rejaları ravshan. Nisbatan qisqa muddat ichida mamlakat o'z sanoat salohiyatini saqlabgina qolmay, ayni vaqtda birmuncha ko'paytirishga ham erishdi. Ko'pgina ekspertlar O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holatini chamalab, iqtisodiy o'sishning sur'atlarini davom ettirib, respublika mintaqada sanoati taraqqiy etgan baquvvat davlatga aylanishi mumkinligini bashorat qilmoqdalar. Ularning ba'zilari hatto yaqin kelajakda O'zbekiston 'Osiyodagi yangi iqtisodiy yo'lbars' bo'lib qolishi mumkin, deb hisoblamodalar<sup>15</sup>.

O'zbekiston sanoatdagi islohatlarni benihoya murakkab vaziyatda boshlashiga to'g'ri kelganini uatirib o'tmoq kerak. 1991 – yilda mustaqillik qo'lga kiritilgan paytda sobiq Ittifoqning boshqa respublikalari kabi O'zbekiston ham yangi sharoitda sanoatni rivojlantirishning ilk davri qiyinchiliklariga duch keldi. O'zbekistonda bu qiyinchiliklarning hamma respublikalar uchun umumiy bo'lgan sabablaridan tashqari bir qator boshqa o'ziga xos sabablari bor edi. Bir qancha o'n yilliklar davomida respublika iqtisodiyoti yagona xalq xo'jaligimajmuasining bir qismi bo'lib kelgan, majmuaga esa Markazdan rahbarlik qilinar edi. Qabul etiladigan ko'pgina qarorlar O'zbekiston manfaatlariga mos kelmas edi. Aslida chor hokimiyati davrida bo'lganida

---

<sup>15</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O'zbekiston. 2000 – yil

respublika arzon xom ashy ova strategic mineral resurslarni yetkazib berish manbai ,tayyor mahsulot sotiladigan bozor bo`lib qolgan edi ya`ni unga xom ashyo qo`shig`i roli ajratilgan edi.

Uning hududida joylashgan ko`pgina korxonalar bevosita Markazga bo`ysunar, O`zbekiston ularni boshqarmas edi Ular asosan xom ashyo qazib olish va dastlabki qayta ishlash , chala tayyor buyumlar va mudofaa mahsuloti ishlab chiqarish bilan shug`ullanar edi.Korxonalarining asosiy ko`pchiligi respublikaning ichki bozoriga emas, balki chetga chiqarishga xizmat qilar va ko`pincha O`zbekiston rahbarlariga respublika hududida qanday mahsulotlar va qancha hajmda ishlab chiqarilayotgani , qanchasi chetga tashib ketilayotgani , kimga va qanday narxlarda sotilayotgani bildirilmas ham edi. Bularning hammasi juda qattiq sir saqlanardi. Respublikaning juda katta tabiiy salohiyatidan foydalanilar , daromad esa , uning tashqarisida qolib ketar edi.

Umuman iqtisodiyotni xom ashyo yetkazib berishga yo`naltish va sanoatdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirish darajasi juda yuqori edi. Ayni vaqtda sanoat mahsuloti umumiy hajmda mashinasozlik mahsulotining ulushi va mahsulot narxidagi qo`shilgan qiymat darajasi past edi.O`zbekiston bu tomondan arzon va sifatli mineral hamda qishloq xo`jalik xom ashyosini, ya`ni mehnat predmetlarini yetkazib berar,ammo, mehnat qurollarining ulushi juda oz edi.O`zbekistondan olib ketiladigan asosiy mahsulotlar, paxta va rangli metallarning xarid narxlari 80 yillarda benihoya past bo`lganligi uchun ularni ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarni zo`r bazo`r qoplar va jahon narxlaridan pastligi sababli Respublika byudjetiga zarur tushumlarni ta`minlay olmas edi.O`zbekiston asbob uskuna, texnologiya va ko`pgina turdagi xom ashyolarnigina emas, go`sht, qand-shakar tuz va boshqa hayotiy muhim oziq –ovqat mahsulotlarini, o`zi bemalol ishlab chiqarsa bo`ladigan juda ko`urdagi xalq istemol mollarini chetdan tashib keltirishga majbur edi.Natijada O`zbekiston deyarli barcha ittifoqdosh Respublikalar bilan salbiy Tovar balabsi savdisiga ega edi.1990 yilda Respublikalararo savdo aylanmasida O`zbekistonning salbiy savdosi 3,7 milliard rublni yoki yalpi milliy mahsulotning salkam 11 foizni tashkil qiladi.

O`zbek paxtasi uchun Moskvadagi mahkamalarda belgilangan narxlar xalqaro narxlardan bir necha yuz barobar past edi.Sobiq SSSR O`rta mashinasozlik vazirligi Respublika yer ostidan qancha oltin, boshqa qimmatbaho va strategik materiallar qazib olayotganini, ulardan qayerda foydalanayotganini va shu yo`l bilan naqadar katta daromad olinayotganini O`zbekistonda hech kim, hatto rahbarlar ham bilmas edi.Faqat mustaqillikka erishilgandan keyingina ma`lum

bo`lishicha O`zbekiston oltinishlab chiqarishda Sobiq Ittifoq Respublikalari orasida (Rossiyadan keyin )ikkinchi va dunyoda yettinchi o`rinda turar ekan.

Ammo shuncha boyligi bo`lishiga qaramay Sobiq ittifoq tarkibidagi O`zbekiston 30-35 foizigacha dotatsiyali davlat byudjetiga ega bo`lib, undagi aholining turmush darajasi Sobiq Ittifoq Respublikalari orasida eng pastlaridan biri edi.Asosiy tarmoqlar kompleks tarzda enas, balki Rossiya va boshqa Respublikalardagi ishlab chiqarishlarga resurslarni va tayyor mahsulotni necha ming kilometr ga yetkazib berishga ko`pincha nooqilona, muqobil ravishda bo`liq qilib qo`yadigan tarzda rivojlantirar edi<sup>16</sup>.

Tabiiyki, bunday sharoitda tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning salmog`i juda past bo`lar va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishning yuksak texnologiyasi deyarli mavjud emas edi.Islohotlar boshlangan paytda yetakchi tarmoqlarda asbobuskunalarning ko`pchiligi jismoniy va ma`naviy jihatdan juda eskirib ketgan edi.Chunonchi, 1991 yilga kelib, umuman sanoat bo`yicha asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi 41 % ga yrtgan,yoqilg`i, kimyo va neft kimyosi tarmoqlarida hamda rangli metallurgiyada 51 %dan, un – yorma va omuxta yem sanoatida 57 % dan oshgan edi.O`zbekiston sanoatiga xos xususiyat shundan iborat ediki, ishlab chiqarishning texnologiya darajasi qoloq bo`lib,unga material va energiya sarflanishi rivojlangan mamlakatlardagi darajadan 6-7 barobar yuqori edi.Islohotlarning ilk davridagi bu qiyinchiliklarning hammasini sanoatdagi iqtisodiy o`zgarishlarning ustuvor jihatlari va suratlarini belgilash paytda hisobga olish kerak edi. Iqtisodiy qiyinchiliklar demografikholat bilan qo`shilib,ijtimoiy vazifalarni hal

---

<sup>16</sup> Premishlennosit` respubliki Uzbekistan. Tashkent. Goskomstot. 2005 – yil.

etishni eng o`tkir muammolar jumlasiga kiritar edi. Mustaqillikka erishish arafasida O`zbekistonda aholining turmush darajasi Sobiq ittifoqdagi eng past darajalardan biri edi. 1990 yilda O`zbekiston aholisining 70 foizi kun kechirish uchun zarur bo`lgan eng kam miqdordan daromadlar edi, Rossiya va Ukraina aholisi orasida bu ko`rsatkich atigi 30 foizni tashkil qilardi. Shu sababli iqtisodiy islohotlarning boshlanishida mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta`minlash sohasida ham jiddiy muammo bor edi. Biroq mustaqillikka erishilishi bilan darhol tub iqtisodiy islohotlarga o`tishning iloji yo`q edi. Birinchidan, yosh davlat o`zini tiklab, olishi paytida tabiiy bo`lgan yangi muammolar vujudga kelayotgan, bazan islohotlarni amalgam oshirishning o`z dasturini ishlab chiqish zarur bo`lgan edi. Ikkinchidan, sobiq ittifoq barbod bo`lishi natijasida namoyon bo`la boshlagan ijtimoiy iqtisodiy tanglikni darhol bartaraf etish zaruriyati kelib chiqqan edi. Respublika Sobiq Ittifoq tarkibida bo`lgan davrdagi o`n yilliklarda ijtimoiy-iqtisodiy tanglikni darhol bartaraf etish va bu tanglik sabablari to`planib qolgan edi, shu sababli 1991-1993 yillarda pulning haddan tashqari qadsizlanishi, ishlab chiqarish tanazzulga yuz tutishi, davlat byudjetining kamomadi o`sishi, aholining turmush darajasi pasayishi tarzidagi qaltis shakllarda tanglik vujudga kelgan edi. Mana shunday sharoitda muvaffaqiyatli o`tkazilgan iqtisodiy islohotlar O`zbekistonga tanglikdan tez qutilish imkonini berdi. Mustaqillik yillarida sanoat sohasidagi siyosiy iqtisodiy islohotlar “O`zbekcha modeli” ning eng muhim tamoyillari asosida amalgam oshiriladi. Respublika prezidenti Islom Karimov shu modelning muallifi edi. Avvalo tashkiliy – huquqiy negizni shakllantirish, tuzulma investitsiya siyosatini o`tkazishda davlatning faol ishtirok etishi, bozor islohotlarining izchilligi shu modelning asosini tashkil qilar edi. MDH dagi boshqa mamlakatlardan farqli o`laroq O`zbekistonda uchta yirik murakkab muammo bir vaqtning o`zida hal etildi. Hozirgi vaqtga kelib mamlakatda qulay makroiqtisodiy iqlim vujudga keltirildi<sup>17</sup>.

---

<sup>17</sup> Premishlennosit' respubliki Uzbekistan. Tashkent. Goskomstot. 2005 – yil.



Respublika o'z modeli asosida iqtisodiy islohotlar yo'lidan aniq maqsadni ko'zlab ilgari lab borayotganligi tufayli makroiqtisodiy va moliyaviy vaziyatni barqarorlashtirishga va MDH mamlakatlari orasida iqtisodiyotning eng kam darjada pasayishiga erisha oldi. Quyidagi dalillar shuni isbotlaydi. 1996 yildan boshlab O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va kapital mablag'larning ko'payishi ro'y bermoqda. 1996 – yilda real yalpi ichki mahsulot 1,7 foiz, 1997 yilda 5,2 foiz, 1998 yilda 4,3 foiz 1999 – yilda 4,4 foiz oshdi. M'tadil – qat'iy fiskal siyosat tufayli buydjet kamomadi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,5 foizgacha, pul qadrsizlanishining ortacha oylik suratlarini 1,8 foizgacha ta'minlandi. Garbiy texnologiyalarni jalb etgan holda qo'shma korxonalar barpo etishga alohida e'tibor qaratildi. Ayni vaqtda jahon moliyaviy tangligining Respublika iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishga qaramay 1997-1999 yillarda iqtisodiy o'sish ta'minlanganini ta'kidlab o'tish zarur.

Suveren O'zbekistonda islohotlarning ilk bosqichidagi sanoat siyosati avvalo iqtisodiy mustaqillikni, jumladan, mamlakatning energetika sohasidagi xavfsizligini, shuningdek boy mineral xom ashyo manbalaridan foydalanish bilan ham bog'liq bo'lgan va ko'proq sarmoya sarflanishini talab qiladigan konchilik sanoatini ustun ravishda ta'minlashga qaratildi. 1995-1996 – yillarda yoq sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishda aniq ijobiy siljishlar ko'zga tashlanadi, o'shanda ishlab chiqarishning pasayishi to'xtatilib, sanoat ishlab chiqarishi hajmi 1990 – yilgi darajaga yetib oldi, holbuki Rossiya va Ukrainada sanoat ishlab chiqarishning pasayishi 48 foizni, Qozog'istonda 51 foizni va MDH bo'yicha o'rta hisobda 50 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarishning pasayishi nisbatan tez to'xtatib qolingani va sanoatning yana rivojlana boshlanganligini ta'minlangan omil shu bo'ldiki, makroiqtisodiy barqarorlashtirish va moliyaviy resurslarning haddan tashqari cheklanganligidan iborat murakkab sharoitda Respublika hukumati tarmoqlardagi tarkibiy o'zgarishlarni moliyaviy qo'llab quvvatlashdan hamda neft, gaz va oltin chiqarish sanoati kabi bazaviy tarmoqlarni, shuningdek rangli metallurgiya tarmoqlarini jadal rivojlantirishdan voz kechmadi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar natijasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi.

Birinchiidan, sanoat ishlab chiqarishning sur`atlari jihatidan Respublika MDH mamlakatlari orasida birinchi o`ringa chiqdi. 1998 – yildayoq 1991 – yildarajasiga nisbatan bu sur`at 111 foizni, ayni vaqtda Rossiyada atigi 50 foiz, Ukrainada 51 foiz, Qozog`istonda 49 foizni tashkil qildi. Respublikada sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmida resurs ishlab chiqaruvchi tarmoqlar ulushi kamaya boshladi. 1990-1998 – yillarda bu ulush 20 foiz kamaydi. Taqqoslab ko`ring: Rossiya, Ukraina va Qozog`istonda shu davr ichida bu ko`rsatkich o`rta hisobda 2 barobardan ziyod oshdi<sup>18</sup>.

Ikkinchiidan, irodaviy- tashkiliy tizimni isloh qilishda muhim ijobiy siljishlar ro`y berdi. Hozirgi vaqtda sanoat ishlab chiqarishning 65 foizidan ko`prog`i nodavlat sektorining ulushiga tog`ri kelmoqda. O`zbekistonda kichik va o`rta tadbirkorlikning qaror topishi jarayoni jadal sur`atlar bilan amalgam oshirilmoqdi. Xususiylashtirishga tushgan mablag` kichik va o`rta biznesni rivojlantirishga va xususiylashtirilgan korxonalarini qo`llab – quvvatlashga sarflanmoqda. Shu maqsadda Jahon bankining, Yevropa tiklanish va tarqqiyot bankining, Osiyo taraqqiyot bankining va boshqa mo`tabar moliya muassasalarining kredit liniyalari jalb qilinmoqda. Sanoatda kichik korxonalar yirik korxonadan ko`ra samariliroq ishni ta`minlay oladigan faoliyat sohasi ekanligi yaqqol namoyon bo`lmoqda.

Birinchi navbatda kichik va o`rta biznesni qo`llab – quvvatlash yuzasidan qabul qilingan davlat dasturi Respublikada kichik va o`rta tadbirkorlikni keng miqyosda rivojlantirishga ko`maklashdi. 1999 – yilda yalpi ichki mahsulotda kichik va o`rta biznesning ulushi 14 foizni tashkil qildi. O`zbekiston hukumati yaqin 2-3 yilda kichik korxonalar sonini ikki barobar ko`paytirish va ularning yalpi ichki mahsulotda qo`shilgan qiymatdagi ulushini 25 foizga yetkazishga erishilmoqda.

Uchinchiidan, iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim tarmoqlarini rag`batlantirish va qo`llab quvvatlashdan iborat faol davlat siyosatini o`tkazish hisobiga mamlakatning iqtisodiy havfsizligini asosan ta`minlashga muvaffaq bo`lindi. 1990 – 1998 – yillarda MDH ning ko`pchilik mamlakatlarida neft gaz sanoatida ishlab

---

<sup>18</sup> Premishlennosit` respubliki Uzbekistan. Tashkent. Goskomstot. 2005 – yil.

chiqarish sur`atlari va natural hajmlari pasaygan bir paytda O`zbekistonda neft gaz kondensanti qazib olish 2,9 barobar, gaz qazib olish 1,35 barobar ko`paydi, umuman energiya resurslari ishlab chiqarish 1.4 barobar ko`paydi. O`zbekiston iqtisodiyotining mustahkamlanishi eksport salohiyatini oshirish uchun imkoniyat yaratdi. Texnika siyosatining amalgam oshirilishi raqobatbardosh mashinasozlik mahsulotlarining yangi terlarini ishlab chiqarishni o`zlashtirish imkonini berdi. Xom ashyo Resurslarini qayta ishlashni yaxshilashga, eksport potensialini ko`paytirishga qaratilgan chora tadbirlar tashqi aloqalar tuzilmasini juda jiddiy ravishda qayta ko`rib chiqish imkoniyatini yaratdi. O`zbekiston mahsulotlarining chetga sotilishini rag`batlantirish uchun Respublika prezidentining “Tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportini rag`batlantirishga oid qo`shimcha chora –tadbirlar to`g`risida”gi farmoniga binoan 1997- yil 1 noyabridan boshlab respublikada tayyor mahsulotning barcha turlari uchun eksport boji bekor qilindi. Ayni vaqtda O`zbekiston Prezidentining farmoniga muvofiq 1997- yil 1 noyabridan boshlab 30 foizli boj joriy etiladigan import tovarlarining turlari ko`paytirildi. Endi 97 nafar guruhidan 46 tasiga 30 foizli boj solindi. 1998 –yil 1 yanvaridan e`tiboran MDH mamlakatlariga erkin muomiladagi valyutaga mahsulot eksport qiluvchi O`zbekiston korxonalari aksiz solig`i va qo`shilgan qiymat solig`i to`lashdan ozod qilindi. Bu imtiyozlar Respublika eksportchilariga qo`shimcha foyda keltirdi<sup>19</sup>.

To`rtinchidan, mustaqillik yillarida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini va ishlab chiqarish infrastrukturasi qo`llab – quvvatlash, markazlashtirilgan investitsiyalarni ustuvor loyihalarga to`plash va o`rtacha muddatli istiqbolga mo`ljallangan davlat maqsadli dasturlarini faol investitsiya siyosatidagi asosiy yo`nalishlar bo`ldi. 1991 –yil va 1998- yillar oralig`ida barcha capital mablag`larning 56-68 foizi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga, shu jumladan investitsiyalarning salkam 20 foizi mashinasozlikka, 15 foizi yoqilg`i-energetika majmuasiga sarflandi. O`zbekistonda dunyoda avtomobil sanoatiga ega bo`lgan 28 mamlakatdan biriga aylanishi imkonini berdi. Ishlab chiqarishdagi siljishlar

---

<sup>19</sup> Premishlennosit` respubliki Uzbekistan. Tashkent. Goskomstot. 2005 – yil.

natijasida o`zbekiston sanoatining tarmoq tuzilmasi yanada xilma – xil bo`lib qoldi. Beshinchidan, iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlarning ijtimoiy sohaga yo`naltirilishi ta`minlandi. Ishlab chiqarish sanoati ko`pgina rivojlanishi sof iqtisodiy natijadan tashqari, ko`p miqdordagi yangi ish joylarini vujudga keltirish tarzidagi salmoqli ijtimoiy samara olinishini ya`minlaydi. Mustaqillikning to`qqiz yili mobaynida sanatta 200 mingga yaqin yangi ish o`rni vujudga keldi. Oziq – ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hisobiga umuman mamlakatning oziq ovqat sohasidagi vavsizligi ta`minlanadi. Oziq - ovqat import qilish mustaqillik yillarida ikki barobar qisqartirildi<sup>20</sup>. Oltinchidan, Respublika eksporti tarkibida ham ijobiy o`zgarishlar ro`y berdi. An`anaviy mollarni eksport qilish hajmlari ko`payishi bilan bir qatorda neft mahsulotlari, uran, yengil avtomobillar, samoliotlar, maishiy elektronika buyumlari ham eksport qilina boshlandi. 2000- yilga qadar O`zbekiston to`qimachilik sanoatida o`zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 450 mln dollarni tashkil qildi. rejalashtirilgan tadbirlar majmuasi Respublikada qayta ishlanayotgan paxta tolasining hajmini hozirgi 20 foizdan 50 foizgacha yetkazish imkonini berdi. O`zbekiston paxta yetishtirish bo`yicha dunyoda beshinchi va paxta tolasini eksport qilish bo`yicha ikkinchi o`rinda turadi. Har yili Respublikada o`rta hisobda 3,5-3,7 mln tonna paxta xom ashyosi tayyorlanadi. Farg`ona to`qimachilik kombinati modernizatsiya qilinib, kalava iva surp ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilmoqda. Uning loyihadagi quvvati yiliga 11,8 ming tonna kalava ip va 45,127 mln pogon metr xom surpnishlab chiqarish imkonini beradi. Farg`ona to`qimachilik kombinatini moderinizatsiya qilishga 118 mln dollar sarflash taxmin qilinmoqda . Loyiha uchun 1999 –yilda Kabool Texteles va “Farg`ona to`qimachilik kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan tuzilgan “Kabul Fergana Ko ltd ” qo`shma korxonasi mablag`dan foydalanish ko`zda tutilmoqda. Yapon krediti O`zbekiston hukumatining kafolati asosida 12 –yil muddatga beriladi deb nazarda tutilmoqda. 2000 – yil boshlaridan boshlangan korxonani texnika bilan qayta jihozlash ishlari 2001 – yilda tugallanadi.” Kabul Fergana ltd “ qo`shma korxonasi ustavi sarmoyasida kores

---

<sup>20</sup> Premishlennosit` respubliki Uzbekistan. Tashkent. Goskomstot. 2005 – yil.

tomonining ulushi 60 foizni, o`zbek tomonining ulushi 40 foizni tashkil etdi. Farg`ona to`qimachilik kombinati modernizatsiya qilinadigan keyin korxonada mahsulotining kamida 90 foizini eksport qilish rejalashtirilmoqda. O`zbekistonning eksport salohiyatini rivojlantirish dasturiga binoan kalava ip va gazlama ishlab chiqaradigan korxonalarini texnika bilan qayta jihozlab va yangilarini qurishga 486,5 mln dollar sarflash rejalashtirilmoqda. Janubiy Koreyaning Kabool Textiles kompaniyasi O`zbekistonda 90 –yillarning boshlaridan ishlayotgan. 1996 yilda u Toshkent viloyatining To`ytepa shahrida juda katta to`qimachilik majmuasini qurdi, uning jami mahsuloti eksportga yuborilmoqda. 1999 yil dekabr oyining boshlarida Kabool Textiles Toshkentda ip yigiruv fabrikasini ishga tushirdi, uning qurilishiga 114,5 mln dollar sarflandi. 1998 –yilda qurila boshlangan bu fabrikaning loyihadagi quvvati yiliga 24 ming tonna kalava ipni va 9 mln pagon metr xom surupni tashkil etadi, bu mahsulotlar 26 ming paxta tolasini qayta ishlash natijasida hosil qilinadi. Fabrikada 2700 kishi ishlab turibdi<sup>21</sup>. O`zbekiston prezidenti Islom Karimov fabrikani ochishga bag`ishlangan tantanali marosimda respublika hukumati Kabool Textilesga respublikada biznes uchun eng qulay sharoit yaratib berilishiga har tomonlama ko`maklashadi, deb ta`kidladi. Prezidentimizning aytishicha, janubiy Koreyaning bu kompaniyasi 1999 yilda O`zbekiston iqtisodiyotiga salkam 180 mln dollar investitsiya soldi.

---

<sup>21</sup> Premishlennosit` respubliki Uzbekistan. Tashkent. Goskomstat. 2005 – yil.

## **II – BOB. Noto`qima mato va buyumlar. Ularni O`zbekistonda ishlab chiqarish. Xorijiy texnologiya.**

### **I. O`zbekistonda to`qimachilik sanoatiga ilg`or xorijiy texnologiyani joriy etish.**

Not`qima mat ova buymlarni ishlab chiqarish, to`qimachilik sanoatining eng yosh tarmoqlaridan biri. Bu to`qimachilik mahsulotini ishlab chiqarish, o`zini yuqori iqtisodiy samaradorligi bilan mutaxassislar e`tiborini o`ziga jalb eib kelmoqda. Ilk bor tolalarni ishlash usuli bilan t`qimachilik matosini ishlab chiqarish AQSH da 1940 yillarda sinov namunalarini olish bilan boshlangan edi. Sanoat asosida yelimlangan not`qima matosini 1943 – yilda ishlab chiqarish boshlandi. Uzoq vaqt yelimlangan noto`qima materiallari keng iste`molchilarga ma`lum bo`ldi. 1959 –yili AQShda noto`qima materiallarni ishlab chiqarish muammolariga bag`ishlangan simpozium bo`lib, shu soha bo`yicha qator ilmiy tadqiqot ishlar natijalari cop etildi. Bu yildan yilga noto`qima mahsulotni ishlab chiqarish hajmini oshib borishiga sabab bo`ldi. Quyida AQShda noto`qima matolarni ishlab chiqarish statistik ma`lumotlar keltirilgan(hajm tonnada).

1940 – yil 0,1

1945 - yil 7,0

1955 - yil 29484

1958 - yil 36288

1960 - yil 90000

Davlat noto`qima mahsulotlarini past navli va chiqindi paxta tolalaridan ishlab chiqarilgan. 1950 yillardan boshlab bu mahsulotlarni xom ashyosi sifatida kimyoviy tolaiarni ishlatilishi, ularni sifatini yaxshilashga katta imkon yaratadi. Boshqa noto`qima mahsulotlari bir marotaba ishlatiladigan buyumlar sifatida ishlatiladi<sup>22</sup>.

1960 – yillarga kelib noto`qima matolarni yelimlab olish usuliga, mehanikaviy noto`qima ishlab chiqarish usuli qo`shilib bu mahsulotni ishlab chiqarish hajmi

---

<sup>22</sup> Premishlennosit` respubliki Uzbekistan. Tashkent. Goskomstot. 2005 – yil.

yildan – yilga oshib bordi. Shuning bilan birga bu maxsulotni ishlatish doirasi ancha kengaydi.

O`zbekistonda noto`qima matolarni ishlab chiqarish 1960 - yilda boshlangan. Dastlab Namangan shahrida mehanikaviy usulda noto`qima mato ishlab chiqaruvchi fabrika tashkil etildi va uning ishlab chiqarish suratlari yildan – yilga oshib bordi. Msalan 1960 – yilda Respublikamizda 50 ming metr noto`qima mato ishlab chiqarilgan bo`lsa, 1967 – yilga kelib bu raqam 6096 ming metrni tashkil etdi. Yoki noto`qima mato ishlab chiqarish 7 yil ichida 122 marta o`tdi. Bunday jadal o`shishning sbabi noto`qima mato tannarxining g`oyat darajada pastligidir. Shuning uchun ham xalq xo`jaligida traditsion matreiallar o`rniga noto`qima matolarni qo`llash keng foyda berdi. Paxta toyini o`rash uchun ishlatiladigan kanop, jun gazlamalar o`rniga noto`qima mato ishlatish keng tarqlaldi. Mavjud noto`qima maxsulotlarni ishlab chiqarish usullari turi ko`p bo`lib ularni quyidagi sinf, kichik sinf, guruh, kichik guruh va turlarga tasniflash mumkin.

1970 – yillarning o`rtalarida O`zbekistonda yana bir yirik noto`qima matosini kiyoviy usulda ishlab chiqaruvchi fabrika namngan viloyatining Pop shahrida ishga tushirildi. Keyinchalik Andijon viloyatining Baliqchi shahrida ham noto`qima matolar ishlab chiqarish fabrikasi tashkil etildi.

O`zbekiston to`qimachilik sanoatida ham horijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalari tabora rivojlanib bormoqda mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan sarmoya hajmi oshib chet ellik sheriklar bilan birgalikda barpo etilayotgan qo`shma korxonalar soni ko`paymoqda. Bularga avvalo Mustaqil O`zbekistonda, prezidentimiz tashabbuslari bilan to`qimachilik sanoatini rivojlanishida yangi sifat o`zgarishlarga qaratilgan tadbirlar asosiy omil bo`lmoqda. Jumladan 29 – aprel 1996 yil 116 - sonli Vazirlar Mahkamasining “Engil va mahalliy sanoatiga davlat yordami” to`g`risidagi, 27 – iyun 1997 – yil 326 – sonli O`zbekiyengilsanoat uyushmasi bilan chet el kompaniyalarini qo`shma loyihalarni joriy etish” to`qrisidagi qarorlari, yangi quvvatlarni yaratish, yangi qo`shma korxonalarni qurilishini tugatish, mavjud korxonalarga yangi texnika va texnologiya keltirishdagi asosiy dastur bo`lib qoldi. Bu

qarorlarni bajarish chet el investitsiyalarni jalb etish asosiy omil edi. Natijada O`zbekistonga 1996 – yil 81,4 mln AQSh dollari, 1997 – yil 90,1 mln, 1998 yil esa 119,5 mln dollar hajmida chet el investitsiyasini keltirdi. Bulardan tashqari 1995 -97 yillarda to`qimachilik sanoatining rivojlanishiga o`z manbalaridan 58 mln dollar sarflandi. Chet el ilg`or to`qimachilik texnologiyasi 1993-94 yillarda Buxoro ip gazlamalar ishlab chiqarish birlashmasiga birinchilar qatorida keltirildi. Shveysariyani Riter firmasining avtomatik yigiruv tizimi, “Beninger” firmasining tandalash mashinasi, Olmoniyaning “Zukker Myuller” firmasining oxorlash mashinasi o`rnatildi. Bu texnologiyalar ishlab chiqarish unumdorligini oshiribgina qolmay, mahsulot sifatini dunyo bozoridagi mahsulotlar bilan raqobat bo`la olishi ta`minlandi. Jadvalda 1998-1999 yillarda O`zbekistonda faoliyat qilayotgan qo`shma korxonalar, ularni investitsiya hajmi va ishlab chiqarish quvvatlari keltirilgan. Jadvaldan ko`rinib turibdiki, chet el investitsiya hajmi bo`yicha eng ko`p Janubiy Koreaning “Kaabul” kompaniyasini 186 mln AQSh dollaritashkil etadi. Chiqariladigan mahsulotlarni paxta tolasidan yigirilgan ip ishlab chiqaradi. Bu korxonaning texnologiyasi ham noyob bo`lib, eng yuqori sifatli jun tolalar bilan kimyoviy tolalar aralashmasida, yuqori sifatli ingichka yigirilgan ip ishlab chiqariladi. Ulardan esa qimmatbaho kastyumbob gazlamalar to`qiladi.

Ingichka yigirilgan ip ishlab chiqarishda hosil bo`lgan chiqindi kalta tolalarni dag`al jun tolalarni va ikkilamchi qayta ishlangan xom ashyoni aralashmalaridan apparat tizimida yigirilgan yo`g`on ip ishlab chiqariladi. Kosonsoy Tikmen qo`shma korxonasining ip yigiruv, to`quvchilik va pardozlash jarayonlarida eng zamonaviy jun tolalarni qayta ishlashga mo`ljallangan dunyodagi mashhur firmalarning jihozlari o`rnatilgan. Shveysariyaning Riter firmasini yigiruv tizimi, “Avtokorner” qayta o`rash avtomatlari, “Berninger” firmasining to`quv dastgohlari o`rnatilgan. Dastgohlarni aksaryati shaxsiy kompyuter bilan jihozlangan bo`lib, ular orqali texnologik jarayon markazdan boshqariladi. To`quv dastgohiga o`rnatilgan jakkard mashinasini elektron qurilmsi, dastgohda ishlab chiqarilayotgan to`qima naqshini ko`piga yangisini ishlab chiqarish imkonini beragan. Eski dastgohlarni yangi naqsh ishlab chiqarishga qayta taxtlash uchun bir ishchi bir oyga yaqin vaqt sarf etardi.



“O`zbekengilsanoat” tizimidagi mavjud qo`shma korxonalar.

(1995 – 1999 - y)

Q.Korxonasi nomi	Chet el firmalari	Chet el investitsiya hajmi	Ishlab chiqarish quvvati
Kaabul-Toytepa tekstil	Kaabul tekistayer	70 mln A.Q.SH dollari.	17 ming tonna yigirilgan ip va 15 men pog m garlama
Kasonsoy Tikmen	“Time” “Tipash” Turkiya E B R R.	75MEL AQSH dollari	2,5 mln pog m komvol, 1,7 mln pog m movut gazlamalar 876 ming dona odeyal uchun yigirilgan ip
Kaabul-Uzbek KO Tekstil.	Kabul tekstaylz, Jan Karla	116 mln AQSH dollari	11,4 ming tonna yigirilgan ip ,9 mln pog m gazlama 4740 tonna trikotoy mat ova 20 mln dona trikotoy buyumlari.
Asnam tekstil	Astop-Turkiya	40 mln DM	3ming tonna qaytarash tizimida yigirilgan ip
Supertekstil	Ay-Ti-Ay AQSH.	31,5 mln AQSH dollar.	1,6 ming tonna paxta tolasidan yigirilgan ip.
POP-Ten Namangan v.	Tekfen, Turkiya	44,9 mln DM	4380 tonna qaytarash tizimida yigirilgan ip.
Silk-Road	Marubeni,	60 mln AQSH	130 tonna yigirilgan

Namangan.	Yaponiya	dollari	ipak ipi.
Ankonteks	Bursel, Turkiya	1,21 mln AQSH dollari	1,8 mln dona erkaklar,ko`lagi, 750 ming ko`rpa yostiq jildlari.

Jadvalda keltirilgan qo`shma korxonalaridan tashqari O`zbekistonda keyingi yillarda chet el to`qimachilik korxonalari ham faoliyat ko`rsata boshlashdi. Ular jumlasiga Farg`ona viloyatining Toshloq shaxrida barpo etilgan Janubiy Koreaning “DEU tekstayl” yigiruv – to`quv korxonasi. Bu korxonada ham eng zamonaviy garbiy Evropa, Yapononiya firmalarini zamon talabiga to`liq javob beruvchi texnologiya va uskunarlar o`rnatilgan. Yaponiyaning “Tayota ” firmasida ishlab chiqarilgan pnevmatik to`quv dastgohlarining ishlash tezligi 750 – 1000 bo`lib, bu eski texnologiyadagi dastgohlarni tezligidan 3,5 – 4 marotaba ko`p. Dastgohda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta`minlovchi maxsus moslamalar o`rnatilgan.

1999 – yil 1 dekabr kuni “Kabul – O`zbek Ko ” O`zbekiston – Janubiy Korea qo`shma korxonasiga qarashli mazkur ulkan ishlab chiqarish majmuining rasmiy ochilish marosimi bo`ldi. Unda mamlakatimiz prezidenti qatnashdi va ma`ruza qildi. Davlatimiz rahbari bu yil yurtimizda ko`plab inshootlar bunyod etilganligini mamnuniyat bilan qayd etar ekan, ular orasida Janubiy Koreaning Kaabul teks taylz” kompaniyasi bilan hamkorlikda barpo qilingan. Mazkur ishlab chiqarish korxonasi alohida o`rin tutishini ta`kidladi. Uning eng zamonaviy texnika bilan jihozlangani, asosan eksportbop mahsulot ishlab chiqarishi, ko`plab mahalliy kadrlarni ish bilan ta`minlangani xorij sarmoyasining mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishida nechog`li muhim ahamiyat kasb etishi yana bir karra yaqqol namoyon qilishni qayd etdi. Mazkur inshootning ishga tushirilishini mamlakatimiz iqtisodiy hayotidagi muhim yangilik deyish mumkin. Ayni paytda paxta xom ashyosi 25 % gina o`zimizda qayta ishlanadi. Bu paxtani qayta ishlash sohasini har tomonlama rivojlantirishni taqozo qilqdi. Jadvalda yaqin yillarda

“O`zbekiyengilsanoat” tizimida yangi qo`shma korxonalarini yaratish dasturi keltirilgan<sup>23</sup>.

Ma'lumki, mustaqil O`zbekiston bugunki eksport mahsulotlari ichida, paxta tolasi yetakchi o`rinlardan birini saqlab qolyapti. Yurtboshimiz I. A. Karimovning O`zbekistonni mustaqillikka erishgan birinchi kunlarida aytgan “Biz qudrali t`qimachilik va yengil sanoatini yaratishimiz kerak Hamma tarqqiy etgan davlatlar singari xom ashyo paxtani emas, tayyor mahsulotni sotishimiz zarur,” deganlari Respublikamiz to`qimachilik sanoatining rivojlanish dasturibo`lib qoldi.

Diagramma paxta tolasi va gazlama ishlab chiqarishdan tushadigan daromad keltirgan, diagramma taxlilidan tolaga nisbatan yigirilgan ipni solishtirishda 1,65 marta foydaliroq bo`lishini ko`rsatyapti.

Toladan ko`ra mahsulot sotishning foydaliroq bo`lishi 2 diagramma tola, trikotajmahsuloti va diagramma pilla, shoyi gazlamalardan ham ko`rinib turibdi.

O`zbekiston to`qimachilik sanoatining eksport salohiyatini yuksaltirishdagi asosiy omillardan biri sanoatga yangi texnologiya va jihozlarni o`rnatish zarurligi prezedentimiz yana bir bor 1999 -yil 1 dekabrda “Kaabul O`zbekiston Ko” O`zbekiston Janubiy Korea korxonasining ochilishiga bag`ishlangan uchrashuvda qayd etdilar.

“Korxonada Janubiy Korea, Yaponiya, Germaniya, Shveytsariya va Belgiyada ishlab chiqarilgan zamonaviy texnika bilan jihozlangan. Bu korxonada yiliga 24,5 ming tonna yigirilgan ip eni xalqaro andozalarga mos ya`ni 164 mln yuqori sifatli gazlamalardan esa 9 mln yuqori sifatli gazlamalardan esa 9 mln m ishlab chiqariladi. Mahsulotning 98 % AQSh, Kanada, Yevropa davlatlariga eksport qilinadi. Bu qriyb 50 mln daromad degan gap, ya`ni korxonani barpo etishga sarflangan mablag` juda qisqa vaqt ichida qoplanadi”.

Jadvalda “O`zbekiyengilsanoat ” uyushmasi bo`yicha o`shish diagrammasi keltirilgan Jadval tahlilidan ko`rinib turibdiki, eksport o`shish surati va hajmi bo`yicha yigirilgan ipdan tashkiletgan. 2 chi o`rinda ip gazlama eksportini tashkil etgan, lekin

---

<sup>23</sup> Premishlennosit` respubliki Uzbekistan. Tashkent. Goskomstot. 2005 – yil.

1998 – yil eksport etilgan 19217 tonna yigirilgan ipni yarmisini ip gazlamaga aylantirib eksportga sotilsa eksportdan tushadigan valyuta hajmi ikki marotaba oshadi.

## **II.O`zbekiston paxtasi va to`qimachilik korxonolari jahon nigohida.**

Namanganda O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi,"O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi hamda viloyat hokimligi hamkorligida "Kichik biznesda tekstil sanoati: amaliy tajriba va istiqbollar" mavzuida respublika konferensiyasi o'tkazildi. Tadbirda tegishli vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari, diplomatik korpus va xorijiy kompaniyalar vakillari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan oltmishga yaqin to'qimachilik korxonolari mutaxassislari ishtirok etdi. Anjuman qatnashchilari Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ishlab chiqarish korxonolari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini har tomonlama qo'lab-quvatlashga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi. Mustacjillik yillarida to'qimachilik tarmog'iga 1,8 milliard AQSh dollaridan ortiq xorijiy sarmoya jalb qilindi. "O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tizimida sport, kattalar va bolalar kiyimlari kabi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha ellikdan\_ortiq loyiha amalga oshirildi. Germaniya, Shveysariya, Italiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSh, Hindiston kabi davlatlarning investorlari ishtirokida 120 dan ortiq korxonalar tashkil etildi. Tarmoqni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlar, yaratilayotgan keng imkoniyat va imtiyozlar samarasida O'zbekistonda 2004-yildan 2011-yilga qadar tekstil sanoatidagi ishlab chiqarish hajmi 4,9 barobar, tikuv sanoatida esa 2,9 barobar oshdi.Davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilayotgan katta e'tibor tufayli ko'plab kichik biznes sub'ektlari tekstil sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishda faol ishtirok etayotir. Pirovardida mamlakatimiz yengil sanoat, xususan, tekstil sanoati mahsulotlari eksporti bo'yicha yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishmoqda. Tashqi bozorga katta miqdorda kalava ip, keng assortimentda tikuv va trikotaj mahsulotlari eksport qilinmoqda. Mamlakatimiz tekstil sanoatining taraqqiyotida Namangan viloyati ham alohida o'rin tutadi. 2000-

yilda viloyatda shu sohaga ixtisoslashgan 25 korxonalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, joriy yilning shu davriga kelib, ularning soni 191 taga yetdi. Kichik biznes sub'ektlari tomonidan o'tgan yili ishlab chiqarilgan 377,4 milliard so'mlik mahsulotning salmoqli qismi tekstil ishlab chiqaruvchi korxonalar ulushiga to'g'ri keldi<sup>24</sup>.

- Mazkur konferensiyaning Namanganda o'tkazilayotgani bejiz emas, - deydi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi A.Shayxov. - Chunki viloyat yengil sanoat, xususan, kichik biznesda tekstil sanoati bo'yicha mamlakatimizda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Namanganda tekstil sanoati bo'yicha to'plangan boy tajribani boshqa viloyatlardagi korxonalarda ham joriy etish, tadbirkorlar o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash soha rivojini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi. Anjumanda mamlakatimizda tekstil sanoatiga innovatsion texnologiyalarni jalb etish va jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, Namangan viloyatida kichik biznesda tekstil sanoatining rivojlanish istiqbollari, viloyat to'qimachilik va yengil sanoat texnoparkini takomillashtirish, to'qimachilik va yengil sanoat sohalarida kadrlar tayyorlash, chetdan tekstil sanoatiga tegishli texnologik uskunalar va xomashyo olib kirishda kichik biznes sub'ektlariga bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berish, yengil sanoat mahsulotlarini jahon standartlari bo'yicha sertifikatlash borasidagi dolzarb vazifalar xususida ma'ruzalar tinglandi. Tadbir doirasida Farg'ona vodiysida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'rgazmasi tashkil etildi. Ishtirokchilar Chust tumanidagi "Style Textile", Namangan shahridagi "Iftixor kiyim sanoat", "Faxr tekstil sanoat", Kosonsoy tumanidagi "Chashmai safed" korxonalarining faoliyati, Namangan shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi. 2012 yil 17-18 oktyabrda Toshket shahrida VIII - Xalqaro O'zbekiston paxta va to'qimachilik yarmarkasi bo'lib o'tadi. Ikki kun davomida paxta sanoati va to'qimachilik korxonalar vakillari, yalpi majlis va davra suhbatlarida ishtirok etib, jahon paxta bozorining holati va istiqbollarini muhokama qiladilar, O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar

---

<sup>24</sup> Premishlennosit' respubliki Uzbekistan. Tashkent. Goskomstot. 2005 – yil.

jalb etish uchun yaratilgan qulay muhit bilan tanishadilar, shuningdek paxta tolasi va to'qimachilik mahsulotlarini yetkazib berishga oid to'g'ridan to'g'ri savdo bitimlarini tuzish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan o'tgan davr mobaynida tashkil etilgan paxta forumlarining amaliy yakunlari, Xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasi an'anaviy shaklga kiribgina qolmay, balki xalqaro nufuz va e'tirofga sazovor bo'lganligini tasdiqlaydi. Paxta yarmarkalari ishtirokchilarining soni yildan yilga oshib borishi buni yaqqol isbotlaydi. Dunyoning 38\_ta mamlakatidan paxta sanoati va to'qimachilik sohasining 1000 ga t~-yaqin namoyandalari yarmarka ishida qatnashish istagini bildirgan. Milliy to'qimachilik sanoatini kelgusi rivojlantirish o'ta dolzarbligini inobatga olgan holda, paxta forumi ishtirokchilari Respublika hududlarining investitsiya salohiyati va to'qimachilik sohasi loyihalari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladilar. Yarmarka savdolarida "O'zekspomarkaz" majmui pavironlarida joylashtirilgan o'zbek paxta tolasi va to'qimachilik mahsulotlarining namunalari namoish etiladi<sup>25</sup>. Shu yerning o'zidayoq tanlangan turkumni xarid qilish uchun shartnoma tuzish va mahsulot transportirovkasi yo'nalishlarini muhokama qilish mumkin bo'ladi. Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda paxtachilik sanoatining tuzilmaviy islohotlari izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida o'zbek paxta tolasining jahon bozoridagi mavqei va raqobatbardoshligi ortganidan dalolat beradi. Mamlakatimizning bu borada yuritayotgan siyosati barqaror ishlab chiqarish hajmini saqlagan holda o'zbek paxtasi bilan mintaqaviy va jahon miqyosida savdo qilish uchun raqobat muhitini yaratishga asoslangan. Shu ma'noda paxta tolasini ishlab chiqarish borasidagi yangi texnologiyalarni rivojlantirish, ma'hsulotning sifat va texnikaviy jihatlarini yaxshilash, uni ishlab chiqarish va sotishda bozor tamoyillari va mexanizmlarini keng joriy etish tizimli islohotlarning ustuvori hisoblanadi. O'rta hisobda yiliga 3,5 mln. tonna chigitli paxta yetishtirib, 1,1 mln. tonna paxta tolasi va 1,7 mln. tonna paxta urug'larini olish imkoniga ega O'zbekiston Respublikasi, jahon paxta sanoatining yetakchi ishtirokchilaridan biri sifatida, paxta tolasini yetishtirish ko'lami bo'yicha dunyoda oltinchi, paxtani eksport

---

<sup>25</sup> Engil va to'qimachilik samoatida texnika taraqqiyoti .Bobojonova D.Toshkent O`zbekiston.1986 yil.

qilish bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. Mustaqillik yillarida Respublikamiz seleksionerlari tomonidan g'o'zaning 162 ta yangi navi yaratilgan bo'lib, ulardan 45 tasi O'zbekiston davlat reestriga kiritilgan va yurtimizning turli hududlarida ekishga tavsiya qilingandir. Respublika olimlari seleksiya ishlarini jalashtirishda, iqlim sharoitlarini inobatga olib, yuqori samaradorlik va tolaning sifati, o'ta yuqori harorat, sho'rlanish va namgarchilik taqchilligi, kasallik va zararkunandalarga chidamlilik kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratadilar. Paxta tozalash sohasida ham sezilarli o'zgarishlarga erishildi. Modernizatsiya va innovatsiya yondashuvlari tufayli paxta tolasining sifati yaxshilandi. Paxta tozalash sohasini tubdan o'zgartirish bo'yicha hozirda eng ahamiyatli loyihalardan biri sifatida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "2007 - 2011 yillarda paxta tozalash sanoati korxonalarini modernizatsiya va rekonstruktsiya qilish dasturi to'g'risida"gi Qaror e'tirof etiladi. Dasturga muvofiq paxta tozalash sanoatini izchil va barqaror rivojlantirish, jahon paxta bozorida raqobatga bardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida Respublikaning barcha hududlarida 41ta paxta tozalash zavodini modernizatsiya va rekonstruktsiya qilish mo'ljallandi va muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Sohani modernizatsiya qilish natijasida ishlab chiqarish quvvatlari bilan ta'minlash 56,5 foizdan 78,8 foiz ga oshdi. O'z navbatida, Bremen paxta assotsiatsiyasi va Xalqaro paxta konsultativ qo'mitasining a'zosi bo'lgan, «Sifat» O'zbekiston paxta tolasini sertifikatlash markazi paxta tolasini sertifikatlashtirishni xalqaro talablarga javob beruvchi HVI tizimlari zamonaviyuskunalaridan foydalangan holda amalga oshiradi. Paxta sanoatining keng ma'noda rivojlanib borayotganini inobatga olgan holda, hozirda olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida milliy to'qimachilik sanoatini yanada kengaytirish, paxta tolasini mahalliy qayta ishlash va yuqori qiymat qo'shilgan mahsulotni ishlab chiqarishni takomillashtirish e'tirof etiladi. Shunday qilib, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 1990 yilda paxta tolasini mahalliy qayta ishlash ko'lami ishlab chiqarishning umumiy ko'lamidan 7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 40 foizni tashkil etdi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, 2016 yilga kelib bu ko'rsatkich 60 foizga yetadi.



Qayta ishlash bilan bir qatorda ipakchilik, gilamdo'zlik, trikotaj, tayyor matolar, tikuv va paypoq mahsulotlarini ishlab chiqarish rivojlanmoqda<sup>26</sup>.

O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida, shuningdek sanoat mahsulotlari va nooziq ovqat iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmida tekstil sanoatining ulushi o'sish sur'atlariga egadir. Respublikamizda 2200 ta yengil sanoat korxonalari ro'yhatga olingan bo'lib, ulardan 280 tasi "O'zbekengilsanoat" davlat aktsiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradi. Prezidentimiz tomonidan 2010 yil 15 dekabrda qabul qilingan «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Qarori doirasida, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur va sifatli qayta ishlash negizida eksportga mo'ljallangan raqobatdosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, ularni sotish bozorlarini kengaytirish sohani rivojlantirishning ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlari har yil ichki va tashqi bozolarida katta talabga ega bo'lgan ko'plab yangi turlar bilan boyitiladi. Sohaga unumli, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilinishi tufayli, korxonalar mahsulotining eksport ko'rsatkichlari mustaqillikning dastlabki yillariga qaraganda 110 barobarga oshdi. Yengil sanoatimiz mahsulotlari dunyoning 40 dan ortiq mamlakatiga eksport qilinadi. Milliy an'analarimiz va iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda, zamonaviy liboslar yaratish tizimini takomillashtirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini tashqi bozorlarga kiritish maqsadida, 2011 yilda "Sharq liboslari" dizaynerlik markazi tashkil etildi. O'tgan yillar davomida, xalqaro paxta bozorining muhim ishtirokchilariga aylangan "O'zmarkazimpeks", "O'zinterimpeks" va "O'zprommashimpeks" Davlat tashqi savdo kompaniyalari zamonaviy samarali savdo usullarini qo'llash orqali o'z marketing strategiyalarini olib boradilar. Doimiy strategik hamkorlarga ega tashqi savdo kompaniyalari o'zbek paxtasining butun paxta mavsumi davomida bir maromda yetkazib berish uchun barcha imkoniyatlarga egadirlar. Ta'kidlash joizki, jahon bozoridagi jiddiy raqobat sharoitida o'zbek paxtasining afzalliklari uning yuqori sifati hamda barqaror va o'z vaqtida yetkazib

---

<sup>26</sup> Engil va to'qimachilik sanoatida texnika taraqqiyoti. Bobojonova D. Toshkent O'zbekiston. 1986 yil.

berilayotganida namoyon bo'lmoqda. O'zbek paxtasi eksport siyosatining farqli jihati, barcha xaridorlarga teng imkoniyatlar berilayotgani va shartnoma tuzish hajmi, yektazib berish va to'lovni amalga oshirish shartlari bo'yicha hech bir cheklovlarning mavjud emasligidadir. VIII - Xalqaro O'zbekiston paxta va to'qimachilik yarmarkasi jahon paxta hamjamiyatidagi eng muhim va ahamiyatli voqealardan biri bo'lib, paxta tolasini eksport qilishning bozor mexanizmlarini yanada rivojlantirishga va o'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar va xorijiy xaridorlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni takomillashtirishga turtki bo'lishi shubhasizdir. Rossiya ko'rgazmalar markazida «Tekstillegprom» to'qimachilik va yengil sanoat mahsulot va uskunalarining 32-federal ulgurji yarmarkasi ochildi. Unda O'zbekiston to'qimachilik sanoati vakillari ham o'z mahsulot namunalari bilan ishtirok etishmoqda. Moskva hukumati homiyligi ostida Rossiya Savdo-sanoat palatasi, qator federal vazirliklar, sanoatchi va tadbirkorlar ittifoqlari ko'magida o'tkazilayotgan anjuman Rossiya ko'rgazma markazidagi 35 ming kvadrat metr maydonni egallagan beshta pavilonida joylashdi. Unda Rossiya va dunyoning 38 ta mamlakatidan, jumladan, O'zbekistondan kelgan jami 2,5 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashmoqda. Tadbirning ochilish marosimida so'zga chiqqan mamlakatimizning Rossiya Federasiyasidagi elchisi Uhom Ne'matov O'zbekistonda mustaqillik yillarida sanoatning turli tarmoqlarini, xususan, to'qimachilik sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar, mamlakatimizda 2008 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida erishilgan natijalar, yaqinda bo'lib o'tgan Vazirlar Mahkamasi majlisida Prezident Islom Karimov tomonidan iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, jumladan, yengil sanoat sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish yuzasidan belgilab berilgan vazifalar xususida gapirdi. Yarmarka zallarida O'zbekistonning o'nga yaqin kompaniya va korxonalari, xususan, «O'zinterimpeks», «O'zmarkazimpeks», «Navbahor to'qimachi», «Kotton road», «Bayteks» va boshqalar o'z mahsulotlarini namoyish etmoqda. «Tekstillegprom» yarmarkasida uchinchi bor ishtirok etmoqdamiz, - deydi «Toshkent KayaTekstil» kompaniyasi eksport bo'limi boshlig'i Viktoriya Shibakina. - Moskvaga paxtadan yigirilgan yuqori sifatli iplar, turli xildagi to'qimachilik matolarini olib kelganmiz. Rossiya va boshqa mamlakatlardagi xaridorlarimiz sonining

ko'payishidan umidvormiz. Yangi hamkorlarimizning aniq soni esa yarmarkaning oxirgi kuni shartnomalar imzolanganidan so'ng malum bo'ladi.

Yarmarka tashkilotchilarining aytishicha, o'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar doimo yuqori sifatli va raqobatbardosh, dunyo mezonlariga javob beradigan mahsulotlarni namoyish qilib kelishadi. Bu esa mamlakat sanoati va iqtisodiyoti barqaror rivojlanayotganidan dalolatdir<sup>27</sup>.

Poytaxtimizdagi Milliy matbuot markazida istiqlol yillarida mamlakatimiz yengil sanoatini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligiga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 15 dekabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori to'qimachilik sanoati uchun ulkan imkoniyatlar ochib berdi. Mazkur hujjat bilan tasdiqlangan dastur doirasida umumiy qiymati 1,7 milliard dollarlik 55 yangi investitsiya loyihasini hayotga tatbiq etish, jumladan, tugallangan ishlab chiqarish jarayoniga ega vertikal integratsiyalashgan to'qimachilik majmualarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Hozirgi paytda dunyoda to'qimachilik sanoati mahsulot eksport qilayotgan tarmoqlar orasida yuqori reytingga ega bo'lib, ipdan tortib tayyor mahsulotlargaacha bo'lgan keng turdagi xilma-xil mahsulotlarni eksport qilmoqda. O'zbekiston yengil sanoatini mamlakatimiz sanoat majmuidagi eng ilg'or tuzilma tashkil etuvchi tarmoqlardan biri deyish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida bu soha ulushi 2,7, sanoat ishlab chiqarishida 26, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida 44 foizdan ortadi. Bunday yuksak marralarga mamlakatimiz va xorijiy investorlar uchun jozibador bo'lgan bir qator qulay shart-sharoitlar tufayli erishildi. "O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan matbuot anjumanida shular haqida so'z yuritildi. "O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvi raisi Ilhom Haydarovning ta'kidlashicha, bugun kompaniya tasarrufida eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan 265 ta to'qimachilik, tikuvchilik va trikotaj korxonalari

---

<sup>27</sup> Engil va to'qimachilik samoatida texnika taraqqiyoti .Bobojonova D.Toshkent O`zbekiston.1986 yil.

bor<sup>28</sup>. Ular orasida mamlakatimizda xorijiy sarmoyalarni himoya qilish uchun yaratilgan huquqiy baza va amalda qo'llanilayotgan imtiyoz hamda preferensiyalar tufayli tashkil qilingan qo'shma korxonalar ham ko'p. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan ko'rilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida bugungi kunda ushbu korxonalar yiliga 373 ming tonna ip kalava, 282 million kvadrat metr ip gazlama, 81,8 ming tonna trikotaj mato, 168 millionta tikuvchilik-trikotaj buyumlari va 71,3 million juft paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ldi. Bu yil kompaniya korxonalari 1,56 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari, shu jumladan, 421,1 milliard so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida muhim strategik mahsulot bo'lgan paxta yetishtiruvchi va yetkazib beruvchi asosiy mamlakat bo'lib, dunyoda paxta yetishtirish bo'yicha oltinchi, uni eksport qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. "O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi mahsulotlari Yevropa, Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerikaning 40 dan ziyod davlatiga eksport qilinmoqda. 2010 yil yakunlariga ko'ra, mahsulot eksporti hajmi 2009 yilga qaraganda 160 foizni tashkil qildi. Joriy yilda eksportga mahsulot yetkazib berish hajmini, jumladan, marketing xizmatlarni rivojlantirish va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni jahon bozorlariga faol olib chiqish hisobidan ko'paytirish ko'zda tutilmoqda. Bu ishlar bilan "O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi korxonalarining 40 dillerlik vakolatxonasi shug'ullanmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy investitsiyalar oqimining barqaror ko'payayotgani O'zbekiston yengil sanoatini jadal rivojlantirishning yana bir ko'rsatkichi hisoblanadi. 2010 yilda tarmoqqa 119,4 million dollar investitsiya jalb qilindi va 27 korxonalar ishga tushirildi. Shu yilning oxirigacha kompaniya Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 150 million dollarlik investitsiyalarni jalb etish va 28 yangi korxonani ishga tushirishni mo'ljallamoqda<sup>29</sup>. Tadbirda bugun O'zbekiston yengil sanoati yangi bozorlarni o'zlashtirish va jahon to'qimachilik bozorida yetakchi o'rinlarga chiqish uchun katta imkoniyatlarga ega ekani ta'kidlandi. Respublikamizda tolali o'simliklar (paxta, zig'ir,

---

<sup>28</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O'zbekiston. 2000 – yil

<sup>29</sup> Engil va to'qimachilik samoatida texnika taraqqiyoti. Bobojonova D. Toshkent O'zbekiston. 1986 yil.

kanop va b.) ko'p yetishtiriladi<sup>30</sup>. Ulardan unumli foydalanish, bu tolalardan xalqimiz ehtiyoji, shuningdek, eksport uchun sifatli gazlamalar tayyorlash mamlakatimiz iqtisodiga juda katta foyda keltiradi. Bu ishni amalga oshirishda o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lgan to'qimachilik muhandislariga juda katta talab seziladi. To'qimachilik muhandisi to'qimachilik xom ashyosini qayta ishlash bosqichlarida texnik va idoriy ishlarni amalga oshiruvchi, mehnat jarayoniga zamonaviy texnologik usullarni tatbiq qiluvchi mutaxassis hisoblanadi. To'qimachilik muhandisi, umumiy holda, xom ashyoni tayyor mahsulot shakliga kelishini ta'minlaydigan shaxsdir. To'qimachilik muhandisi ishlab chiqarish bosqichlarini rejalashtiradi. Mahsulotning eng arzon va sifatli shaklda ishlab chiqarilishi ko'p jihatdan unga bog'liq. Mahsulotning texnik va estetik to'qilish jarayonlarini, to'qimachilik mashinalarining soz yoki nosozligini nazorat qilib boradi. Shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifat nazoratini amalga oshiradi. Bosharti bu borada qandaydir kamchilik mavjud bo'lsa, uning kelib chiqish sababini o'rganadi va bartaraf qilish choralarini ko'radi. Chunki to'qimachilik mashinalarini undan ko'ra yaxshiroq biladigan ishchi bo'lmaydi. Hozirgi kunda barcha jabhalarda bo'lgani kabi to'qimachilik sohasida ham avtomatlashtirish jarayonlari amalga oshirilgan<sup>31</sup>. Janubiy Koreya, Turkiya kabi davlatlarning to'qimachilik mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulotarni ishlab chiqarish uchun bizning mutaxassislarimiz ham to'qimachilikni avtomatlashtirishlari, ular yordamida arzon narxli, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishlari shart. Buning uchun esa to'qimachilik sohasidagi avtomatlashtirishdan yaxshi xabardor bo'lishlari, kompyuterda erkin ishlay olishlari talab etiladi. Maktabda va oliy o'quv yurtida aniq fanlarni puxta o'zlashtirgan mutaxassis har qanday murakkab texnologiya bilan tezda til topishib ketadi. Bundan anglashiladiki, to'qimachilik mutaxassislari texnikani yaxshi tushunish bilan birga, aniq fanlarga qobiliyatli ham bo'lishlari kerak. Bugun O'zbekistonda ishlab chiqarilgan xilma-xil yengil sanoat mahsulotlarini Yevropa, Osiyo, Shimoliy va

---

<sup>30</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O'zbekiston. 2000 – yil

<sup>31</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O'zbekiston. 2000 – yil

Janubiy Amerikada yaxshi bilishadi. Joriy yilda eksportga yetkazib beriladigan bunday mahsulotlarni ko'paytirish ko'zda tutilmoqda. An'anaviy o'tkazib kelinayotgan navbatdagi VII Xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasi tufayli bu boradagi imkoniyatlar yanada kengayadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 15 dekabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarorida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur va sifatli qayta ishlash negizida eksportga mo'ljallangan raqobatdosh sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirish, ularni sotish bozorlari kengaytirilishini ta'minlash zarurligi qayd etilgan. Aynan shu sababli bu yil ham, o'tgan yillardagi kabi, yarmarkada keng turdagi mahsulotlar sotuvga qo'yiladi. Rang-barang va yuqori sifatli ip va matolar, yengil, bejirim tikuvchilik hamda trikotaj mahsulotlari eng nozik didli buyurtmachini ham befarq qoldirmaydi. Davlatimiz rahbarining 2005 yil 8 noyabrda qabul qilingan har yili Xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasini tashkil etish to'g'risidagi qarori va 2011 yil 21 iyuldagi VII Xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasini o'tkazishni tashkil etish chora-tadbirlariga oid farmoyishiga muvofiq "O'zbekiyengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiruvchi to'qimachilik korxonalarini mamlakatimiz iqtisodiy hayotidagi muhim voqealardan biri bo'lgan ushbu yarmarkaga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda. Markaziy Osiyodagi tugallangan ishlab chiqarish jarayoniga ega zamonaviy komplekslardan biri - "UZTEX" to'qimachilik kompleksi ham yarmarkada o'z mahsulotlarini namoyish etadi. Mazkur korxonada oliy navli paxta tolasidan yangi texnologiyalar asosida barcha xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori sifatli ip ishlab chiqarmoqda, ayni vaqtda paxta tolasini chuqur qayta ishlash, polotno va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratmoqda. "UZTEX" to'qimachilik kompleksi bir qancha korxonalarni o'zida birlashtirgan. Poytaxtimizning Sergeli tumanidajoylashgan "UZTEX-Tashkent" - shulardan biri. U jahondagi mashhur ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy uskunalari bilan jihozlangan bo'lib, qisqa vaqt ichida sifatli ip yetkazib beruvchi korxonaga aylandi. "UZTEX-Tashkent" yigiruv fabrikasi yuz foiz paxtadan ip ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Bugungi kunda korxonada 120 nafar tajribali mutaxassis mehnat

qilmoqda<sup>32</sup>. "UZTEX-Tashkent" korxonasi direktori Ravshan Yo'ldoshevning aytishicha, fabrikada xodimlarni muntazam o'qitish va malakasini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Buning uchun bu yerda maxsus sinflar tashkil etilgan. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash maqsadida ish uch smenada tashkil etilgan. Ishchilar uchun barcha shart-sharoit va qulayliklar yaratilgan. Yiliga 6,5 ming tonna yuqori sifatli ip ishlab chiqarish quvvatiga ega ushbu fabrikada turli usullarda ip yigiradigan 31,5 mingdan ortiq urchuq o'rnatilgan. "UZTEX-Tashkent" tashkil etilganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q<sup>33</sup>. Shunga qaramay, korxonada texnologik jarayonning dastlabki bosqichidan to tayyor mahsulot ishlab chiqarilishigacha uning a'lo sifatini tasdiqlovchi yagona "USTERIZED" sertifikatiga ega bo'ldi. Shveysariyaning "Uster Technologies" kompaniyasi fabrika faoliyatini ana shunday yuqori baholadi. Bugungi kunda dunyodagi eng yaxshi 47 yigiruv fabrikasi ana shunday a'lo sifatli ip ishlab chiqarmoqda. Mahsulot sifatini nazorat qilish eng zamonaviy priborlar bilan jihozlangan maxsus laboratoriyada amalga oshirilmoqda. Tadqiqot jarayoni "Spectrum HVI" uskunalari yordamida xomashyoni o'rganishdan boshlanadi. Bu bir necha turdagi paxta tolasini samarali birlashtirishga yordam beradi. Laboratoriya qo'shimcha ravishda yana bir necha eng so'nggi pribor va yordamchi vositalar bilan jihozlangan. Tayyorlanayotgan ipning barcha parametrlari "UZTEX" tomonidan qo'llanilayotgan sifat Standartlariga muvofiq o'lchanmoqda va tahlil qilinmoqda. Korxonada o'z mahsulotini eksport qilish bilan birga mamlakatimizdagi tugallangan ishlab chiqarish jarayoniga ega fabrikalarga ham yetkazib bermoqda. Masalan, "UZTEX-Tashkent" ipdan ichki va ustki trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaradigan "UZTEX-Chirchiq" to'qimachilik fabrikasi uchun xomashyo yetkazib beruvchilardan hisoblanadi. Bu yerda xomashyo to'liq qayta ishlanib, trikotaj polotnolar to'qiladi, bo'yaladi va ularga sayqal beriladi, bichib tikilgan tayyor mahsulotlar iste'molchilarga jo'natiladi. Shu kunlarda "UZTEX-Tashkent" yigiruv fabrikasida VII Xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilda

---

<sup>32</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O'zbekiston. 2000 – yil

<sup>33</sup> Engil va to'qimachilik samoatida texnika taraqqiyoti. Bobojonova D. Toshkent O'zbekiston. 1986 yil.

ham yarmarka ishtirokchilari korxonaga tashrif buyurib, bu yerdagi ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishadi. O'tgan yili "UZTEX-Tashkent" Xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasida ilk bor ishtirok etib, korxonada mahsulotini yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzilgan edi. Bu yil fabrika mahsulotlariga bo'lgan qiziqish yil sayin ortib borayotgani va yuqori sifatli ipga bo'lgan ehtiyoj tobora oshayotganini hisobga olib, yana ko'plab yangi sheriklar bilan shartnomalar tuzish mo'ljallanmoqda<sup>34</sup>.Boysun tumanida faoliyat yuritayotgan "Boysun pokiza - tong" xususiy korxonasi 2007- yilda tashkil etilgan bo'lib, sh vaqtgacha bu jamoa noshirlik va matbaachilik mahsulotlari tayyorlash ishlari bilan shug'ullanib kelishardi.mamlakatimizda iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlari moderinizatsiya qilish hamda texnik qyta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash, pirovardida eksport imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan chora – tadbirlar izchillik bilan amalgam oshirilmoqda.Hozirga qadar nihoyasiga etkazilgan ana shunday texnologik yangilanish "Surxon teks" to`qimachilik korxonasining ham iqtisodiy daromad olish manbaini kengaytirdi.Ma'lumki paxta xomashyosini etishtirish bo'yicha dunyoda etakchi o`rinni egallovchi mamlakatimizda endilikda qayta ishlash,to`qimachilik sanoatini rivojlantirish ishlari ham jadallashtirilmoqda.

Respublikada engil sanoatni ustun darajada rivojlantirishga imkon beruvchi barcha omillar - ko'plab paxta, pilla, kanop xomashyosi, yog'ilg'i-energetika, etarli darajada mavjud edi Qolaversa, Respublikaning tez ko'payib borayotgan aholisi engil sanoat mahsulotlarining asosiy istemolchisi ham edi. Tarix bunday omillar davlat mustaqilligi sharoitidagina to'la hisobga olinishi mumkin ekanligini ko'rsatdi. 50-80-yillardagi qaramlik sharoitida O'zbekistonda engil sanoat bir tomonlama rivojlanishga yo'naltirildi. Asosiy e'tibor paxta qabul qilish, paxta tozalash, pillakashlik, qorako'l teriga va kanop tolasiga dastlabki ishlov berish, jun yuvish tarmoqlarini rivojlantirishga qaratildi. O'zbekiston bunday xomashyolardan tayyor mahsulotlar tayyorlash imkoniyatiga ham, xuquqiga ham ega emas edi. Bu masalani markaziy hokimiyat hal qilardi. Tayyor xomashyo Ittifoqning boshqa shaharlariga

---

<sup>34</sup> M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O'zbekiston. 2000 – yil



olib ketilardi va tayyor mahsulotga aylantirilardi, ortib qolgan xomashyo boshqa mamlakatlarga sotilardi va undan katta daromad olinardi. Respublikada 80-yillarda 107 ta paxta tozalash zavodi, ko'pchiligi quritish tozalash sexlariga ega bo'lgan 490 paxta manzillari ishladi. 70-80 yillarning boshlarida respublika to'qimachilik sanoati korxonalari - Buxoro to'qimachilik kombinati (1973), Andijon ip gazlama kombinati (1979), Nukus ip gazlama kombinati (1983), Jizzax paxta yigiruv fabrikasi, yirik to'qimachilik kombinatlarining Qo'rg'ontepa, Marhamat, Yangiqo'g'on, Beshariq, Rishton, Vobkent, G'ijduvon filiallari qurildi. Toshkent va Farg'ona to'qimachilik kombinatlari tarkibidagi bir qator fabrikalar qayta jihozlandi. Ip-gazlama ishlab chiqarish 1960 yildagi 234,7 million metrdan 1985 yilda 395,7 million metrga ko'paydi. Yiliga Respublikada 1,5 million tonna paxta tolasini etishtirib berilardi.

Respublika to'qimachilik sanoati etishtirilgan paxta tolasining atigi 10 foizini qabul qilish va tayyor mahsulotlarga aylantirish imkoniyatiga ega edi. 90 foizi esa olib ketilardi<sup>35</sup>.

Uzbekistonda tadbirkorlik- Tadbirkorlikni kullabni kullab-kuvvatlashning kuvvatlash noyob, uziga xos tizimi yaratildi va ish olib bormokda. Unga davlatning uzi ra^na- molik kilmokda. 1996 yil 12 martda tadbirkorlikni rivojlantirish, kullab-kuvvatlash matssadida, shu jumladan, yakka tartibdagi me^nat faoliyati bilan band bulgan jismoniy shaxslarning manfaatlarini ^imoya kdlish, ishlarini tashkil etishda yordam kursatish va- zifasini uz zimmasiga olgan tovar ishlab chikdruvchi- lar va tadbirkorlar Respublika Palatasining joylarda xududiy bulimlari tashkil kdlindi.

Kichik biznesni kullab-kuvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va urta biznesni rivojlantirishga kumaklashish fondi tuzildi. Tadbirkorlar va biznesmenlarga maslahatlar bilan kumaklashish maqsadida ilmiy-texnikaviy kumaklashuv ja- miyati O'zbekistonda kichik va urta biznesni kullab- kuvvatlash markazidu tuzdi. Evropa hamda Markaziy Osiyodagi AmerTGKatadbirkorlik fondi va Buyuk Britaniya investitsiya fondi tadbirkorlarga kumaklashmokda.

Xususiylashtirishdan tushgan deyarli barcha mablag- lardan iktisodiyotning

---

<sup>35</sup> Engil va to'qimachilik samoatida texnika taraqqiyoti .Bobojonova D.Toshkent O'zbekiston.1986 yil.

nodavlat sektorini shakllan- tirish va mustax;kamlash uchun foydalanilmokda. Xusu- si'ylashtirishdan tushgan butun mablaglarning 50 foi- zi mamlakat «Biznes- Fondi»ga yunaltiriladi. U esa uz navbatida, fakat fukarolarning uz mablagiga asoslan- gan kichik va o`ta biznesga, tadbirkorlikka kreditlar ajratadi. 30 foizi ishlab chikarilayotgan ma^sulotlar nomenklaturasi, assortimentini jadal sur'atda al- mashtirayotgan va investitsiyalarga katgik mu^tojlik sezayotgan xususiylashtirilgan korxonalariga kredit ajratish uchun Davlat mulk kumitasining maxsus g`isob rakdmiga kelib tushadi. 20 foizi esa ijtimoiy eg`- tiyojlar uchun xrkimiyatlarga kelib tushadi va u maktablar, kasalxonalarni ta'mirlash, yangi avtomobil yul- lari kurish va g`okazolar uchun, ya'ni maorif, soglikni sakdash, muxandislik xizmatlari va bozor infrastruktura kurinishida tadbirkorlarga kaytarib beriladigan barcha narsalarga sarflanadi. Krlgan 10 foizi esa xususiylashtirish, tadbirkorlikni kullab-kuvvatlash davlat dasturini amalga oshirishga ishlatiladi.

Tuplangan tajriba katga-katta sanoat korxonala- rini davlat tasarrufidan chikarish imkonini berdi. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya-ishlab chikarish birlashmasi ochik, turdagi davlat-aktsiyadorlik jamiya- tiga aylantirildi.

Kishlok, xujaligi mashinasozligining 15 ta korxo- nasi yukrri investitsiya salog`iyatiga ega bulgan xuja- lik tuzilmasini Uzkishloqxujalikmashxolding»ni tashkil etdi. Uning tarkibiga Toshkent traktor zavodi ishlab chikarish birlashmasi, «Toshkishmash» ishlab chikarlsh birlashmasi, Toshkent agregat zavodi, Chir- chikkishmash^«Uzbekkishmash>> singari aktsionerlik ja- miyatlari kaVi'iirik korxonalar kirdi<sup>36</sup>.

Bir suz bilan aytganda, mustakillik yillarida xususiylashtirish jarayoni Uzbekistonda izchillik bilan boskichma-boskich amalga oshirila bordi. Uzbekistonda iktisodiy islo^otlar uziga xos tarzda amalga oshiri- lar ekan, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni davlat tomonidan kullab-kuvvatlashga katta e'tibor berildi.

---

<sup>36</sup> Engil va to`qimachilik samoatida texnika taraqqiyoti .Bobojonova D.Toshkent O`zbekiston.1986 yil.

O'zbekistonda nubiqtisodiy islohotlar orqali bozor munosabatlarini shakllantirishga kirishilar ekan, avvalo, uning strategik maqsadlari belgilab olindi. Ular quyidagilardan iborat.

- kishilar turmushi va faoliyati uchun zarur shart sharoitlarni ta'minlaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizimni barpo etish.
- ko'p ukladli iqtisodiyotni, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning har tomonlama o'sishi uchun asos bo'ladigan xususiy mulikchilikni vujudga keltirish, uning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash.
- korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinlik berish, ularning iqtisodiy erkinlik berish, ularning xo'jalik ishlariga davlat yo'li bilan to'g'ridan to'g'ri aralashishidan voz kechish.
- Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashib borish
- Aholini to'qimachilik sanoati va oziq ovqat bilan ta'minlab borilishi.

Mamlakatning eksport quvvatidan to'la to'kis foydalanish, uni jadallik bilan rivojlantirish. Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, O'zbekistonda to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarini qayta ishlash, O'zbekiston to'qimachilik sanoatida mustaqillik yillarida rivojlanishi va xotijiy investitsiyalarining oshib borishiga olib keldi. Bugungi kunda O'zbekistonda qayta ishlayotgan paxta tolasining hajmining 50 foizdan ko'proq bo'lishiga imkon berdi. O'zbekiston paxta tolasi eksportini qisqartirilishi hamda kalava ip va tayyor ip gazlama eksportini ko'payishiga olib keldi. O'zbek yengil sanoat uyushmasi mutaxassislarining malumotiga ko'ra respublika to'qimachilik tarmog'ining eksport salohiyati 1991-yildan 2005-yilgacha O'zbekistonda beshyuz mln dollargacha yetadi. Bizga ma'lumki, dunyoda O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha beshinchi va paxta tolasi eksport qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda har yili o'rta hisobda 3,5-3,7 mln tonna paxta homashyosi tayyorlanadi.

Yengil sanoatda mamlakatda ip-gazlama sanoati jahon bozorida raqobatdosh bo'lgan kalava ip, trikatash to'qima gazlama, va to'quvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlantirildi. Isloxat yillari yakunlari o'tish davri qiyinchiliklariga qaramay, O'zbekistonda qudratli sanoat ishlab chiqarish bazasi saqlanibgina qolmay,

sanoatning ilm-fan yutuqlariga asoslarga zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirish uchun asos yaratilganidan, eksportga yo'naltirilgan yuqori texnologiyasi sanoatga istiqbolli zamin yaratilganidan ham dalolat beradi<sup>37</sup>.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerak-ki, mustabid sovet tuzumi davrida paxta yakka hokimligi oqibatida O'zbekistonda bir qancha muammolar kelib chiqqan edi.

Hozir O'zbekiston aholisining 60 foiz qishloqlarda yashaydi. Shulardan biri demokrafiq muammodir.

Aholi tarkibida 60 foizdan ko'prog'I bolalar, o'smirlar 25 yoshgacha bo'lgan yigit qizlardir.

Biroq milliy daromadning 44 foizigina qishloq xo'jaligidan olinadi.<sup>1</sup> Buning sababi respublikada yetishtirilgan paxtaning asosiy qismi markaziga tashib ketildi. O'zbekistonda paxtasi Rossiyaning sanoati ya'ni to'qimachilik korxonalarini o'nlab shaharlardagi odamlarni ish bilan ta'minladi, va yuzlab korxonalar ishlab turib, juda- katta daromad keltirilgan. Ammo faqat xomashyo o'lkasi bo'lgan O'zbekistonda mustaqillikka erishgandan so'ng paxta va to'qimachilik sanoatiga ega bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqillik sharoitida amalgam oshirilishi lozim bo'lgan eng asosiy vazifalardan biri paxta maydonlari qisqartirish va sifatli paxta navlarini yaratish yaqin qishloq joylarda ko'proq to'qimachilik sanoat korxonalarini qurish buning uchun chet-el sarmoyalaridan foydalanish ularning boy tajribasi bilan o'rtoqlashishdan iborat shu bilan hozir qishloqda paydo bo'lgan murakkab ishtimoiy demografik inqirozni muammolarni hal qilish mumkin bo'ladi.

To'qimachilik va yengil sanoat bo'yich agap borar ekan O'zbekiston mustaqillik yillarida yengil va to'qimachilik sanoati tez suratlar bilan rivojlanib bormoqda.

Paxtani qayta ishlovchi "qobul-o'zbekko", "kosonsoy-tekmen", "Asman-Tekistel", "Karakul-Tekis", "Chinoz to'qimach", "qobul farg'ona", "Oqsaroy To'qimavhi" qo'shma korxonalarini barpo etildi. 2004 yilda O'zbekistonda 17 ta yengil sanoat

---

<sup>37</sup> I.Karimov " O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" 51bet

korxonalarini qurilib ishga tushurildi. Bu tarmoqda xalq istemol molari ishlab chiqarish kengaydi minglab yangi ish o'rinlari yaratildi.

Agar 1991-yili Respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004-yil bu ko'rsatkich 28 foizni 2010 yilga kelib 38 foizga yetdi.

Kalava, ip-paxta va shoyi gazlamalarni eksport qilish hajmlari anch oshdi<sup>38</sup>.

---

<sup>38</sup> O'zbekiston tarixi Q.Usmonov Toshkent 2006 yil 428-429 betlar.

## Xulosa

Biz yuqorida to`qimachilik engil sanoat haqida, uning o`tmishi, hozirgi insoniyatga xizmati, o`zbek xalqiga farovonlik keltirishini, uning rivojlanishi haqida yoritib berishga harakat qildik. Mazkur mavzuni tadqiq qilishdan maqsad o`zbek xalqi tarixda to`qimachilik va yengil sanoatning tutgan rolini biroz bo`lsada, tahlil qilishdan iborat edi. Ushbu bitiruv malakaviy ishni tayyorlasda bizning qilgan eng asosiy xulosamiz shu bo`ldiki, to`qimachilik tarixi – bu o`zbek xalqining tarixi, uning ajralmas qismidir. Paxta sanoatida to`qimachilik va yengil sanoat o`zbek xalqining manbai bo`lgan bo`lsa, keyinchalik esa asta sekin butun – butun, katta – katta hududlarda yashaydigan xalqlar orasida to`qimachilik alohida o`rin tutib kelgan. O`zbekistonda paxta bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Chunki u haqiqatdan ham kishilarning turmush darajasini yaxshilashga muhim rol o`ynaydi. To`qimachilik sanoatida xalqlarga farovonlik manbai bo`lib xizmat qilib kelmoqda. Shuni alohida ta`kidlab o`tmoq kerakki, O`zbekiston sanoatidagi islohotlarni benihoya murakkab vaziyatda boshlashga to`g`ri kelganini uqtirib o`tmoq kerak. 1991 – yilda mustaqillik qo`lga kiritilgan paytda sobiq ittifoqning boshqa respublikalari kabi O`zbekiston ham yangi sharoitda sanoatni rivojlantirishning ilk davri qiyinchiliklariga duch keldi. O`zbekistonda bu qiyinchiliklarning hammasi Respublikalar uchun umumiy bo`lgan sabablaridan tashqari bir qator boshqa o`ziga xos sabablari bor edi. Bir qancha o`n yilliklar davomida Respublika iqtisodiyoti yagona xalq xo`jaligi majmuasining bir qismi bo`lib kelgan, majmuaga esa markazdan rahbarlik qilinar edi. qabul etiladigan ko`pgina qarorlar O`zbekiston manfaatlariga mos kelmas edi. Shuni ta`kidlab o`tmoq kerakki mustaqillikka erishgandan so`ng O`zbekistonda to`qimachilik sanoatiga davlat tomonidan alohida e`tibor berilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov 2005-yil dekabrda yoshlar bilan bo`lgan uchrashuvda o`tmishni o`rganishning ahamiyati haqida gapirib, "Tarixni bilmagan avlodning kelajagi yo`q", degan iborani ishlatdilar. Qisqa, lo`nda, g`oyat ayon ibora. Tarixga murojaat qilish haqiqatni bilish vositasidir. Tarixiy xotira xalqimiz ijobiy tajribasini to`plashga imkon beradi. Shu bilan birga, tarixni o`rganish o`tmishni

tanqidiy nigoh bilan idrok etishga, bo'lib o'tgan xatolar sababini anglashga, undan zaruriy xulosalar chiqarishga insonni undaydi. Va, nihoyat, tarix ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini aniqroq bilishga ko'mak beradi. Demak, o'tmishimizni o'rganishdan asosiy maqsad, tarixiy haqiqatni anglab, taraqqiyot qonunlarini yaxshi tushunish va shu asnoda kelajak uchun zaruriy xulosalar qilishdir.

Tarixdan bilamizki, jamiyat doimo bir holatda turmaydi. U o'zgaradi, rivojlanadi, takomillashadi, tanglik va bo'xronga uchraydi, tanazzulga yuz tutadi. So'ng yangi asosda qayta qad ko'taradi. Zero, tarixiy tajribadan ijobiylarini bugungi kun uchun olmoq es-hushi bor, aqlli odamlar burchidir.

Mintaqamiz uzoq o'tmishidan ma'lum bo'ladiki, odamlar o'z mehnati, fahm-u farosati bilan mo'lchilikka, farovon hayotga erishganlar. Oddiy kishilarga, keng xalq ommasiga o'zaro hurmat, andisha, or-nomus, insoniy an'analar doimo hamroh bo'lgan. Ular fojiali damlarda ham insoniylik fazilatlarini saqlab qolganlar. Ularga o'zgaralar mulkiga ko'z olaytirish, qo'zg'alon, inqilob yot bo'lgan. O'zaro munosabatlarda kelishilgan shartlar — lafz muqaddas hisoblangan. Tabiatning qadriga yetish, musaffo havo, yer, suvni avaylab asrash muhim burch bo'lgan. Davlat tashkilotlariga nisbatan itoatda bo'lmoq tabiiy hoi hisoblangan.

Shunday qilib, inson taraqqiyotining muhim omillaridan biri, yurtda siyosiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi bo'lgan davlatchilik o'lkamizda uzoq asrlar davomida tashkil topib, u zamon taqozosiga ko'ra takomillashdi, murakkab ti-zimga aylanib bordi.

Olimlar fikricha, tarixni davr, zamon va shart-sharoit ha-rakatga keltiradi. Zero, qadimgi ajdodlar hayoti shu ikki o'lchamda kechgan. Ma'lumki, dastlabki sivilizatsiya kurtaklari Sharqda bevosita ibtidoiy hayot sharoitlaridan kelib chiqqan. Taraqqiyotning bu kurtaklari odamlarni jamoa bo'lib yashash-ga da'vat etgan va turli bid'at, urf-u odatlar, ijtimoiy munosa-batlarga asoslangan. Qadimdan inson xulqi va faoliyatida ajdodlar tajribasiga tayanish, yoshi ulug'larga hurmat va taqlid qilish odat tusiga aylana boshlagan edi. Bu sifatlar jamoa qadrini bilishga undadi va bora-bora an'analarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shu alfozda aholining turmush tarzi shakllana boshlagan.

Ajdodlarimiz tinimsiz mehnat, izlanish, atrof-muhitni anglash, idrok etish yo'lida bir umr harakatda bo'lganlar, qadam-ba-qadam to'siqlarni yengib yuksalishga erishganlar. Markaziy Osiyo mintaqasi insoniyat taraqqiyotining qadimgi o'choqlaridan biridir. Shu bilan birga sivilizatsiya ko'p elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir.



### **Adabiyotlar:**

1. I. A. Karimov “O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida ” 1997 –yil.Toshkent.
2. I. A. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q ”.Toshkent.Sharq.  
1998 – yil.
3. I. A. Karimov “O`zbekiston – iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida”.Toshkent.O`zbekiston.1995 –yil.
4. I. A. Karimov “O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li ”.  
Toshkent.O`zbekiston. 1992 – yil.
5. I. A. Karimov “O`zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo`lmaydi ”.Toshkent.O`zbekiston. 2005 – yil.
6. O`zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning buniyod bo`lishi. Toshkent.  
O`zbekiston. 1992 – yil.
7. M. S. Gafarali. A. G. Kasayev Rivojlanishning o`zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. Toshkent. O`zbekiston. 2000 – yil.
8. O`zbekistonning yangi tarixi. 3 – kitb, mustaqil O`zbekiston tarixi.  
Toshkent. Sharq. 2000 – yil.
9. Jamiyat va boshqaruv. O`zbekiston. 2008 – yil. 119 – bet. 3 – son.
10. Premishlennosit` respubliki Uzbekistan. Tashkent. Goskomstat. 2005 – yil.
11. Engil va to`qimachilik samoatida texnika taraqqiyoti .Bobojonova D.Toshkent O`zbekiston.1986 yil.
12. O`zbekistonda ijtimoiy fanlar.1982 yil № 7 1984 yil № 12 1985 yil №8
13. Sovet maktabi O`zbekiston SSR maorif ministriligining oylik ilmiy metoduk jurnali 1984 yil 8 son 1987 yil 11 noyabr.
14. Fan va turmush 1970-1990 yillar.
15. Jayxun TerDu xabarlarini, ilmiy nazariya va ilmiy uslubiy jurnal.2004-2008
16. Jamiyat va boshqaruv . Toshkent 2003 yil.
17. Muloqot jurnali .Toshkent 2005
18. Moziydan sado. Ilmiy amaliy ma`naviy ma`rifiy jurnal 1999-2007 yil.
19. Turon tarixi , ijtimoiy – tarixiy, ilmiy va ilmiy – ommabop to`plam 2008
20. Jamiyat va boshqaruv 2008 № 3

21. Jamiyat va boshqaruv 2008 № 3
22. O`zbekiston tarixi . Toshkent . Fan 2004 № 2

# MUNDARIJA

Kirish.....3-6

## **I.Bob. O`zbekistonda to`qimachilik va engil sanoatning ishlab chiqarishi va tarixi.**

I. O`zbekistonda to`qimachilik sanoat mahsulotlarini

ishlab chiqarishi.....7-20

II.O`zbekistonda mustaqillik yillarida o`kazilgan iqtisodiy islohotlar natijasida  
sanoatning o`rni.....21-29

## **II.Bob. Noto`qima mato va buyumlarni ularni O`zbekistonda ishlab chiqarish. Xorijiy texnologiya.**

I.O`zbekistonda to`qimachilik sanoatiga ilg`or xorijiy texnologiyani joriy  
etish..... 30-36

II.O`zbekiston paxtasi va to`qimachilik korxonalarini jahon

nigohida.....37-53.

Xulosa.....54-56


Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....57-58

Ilovalar

Ўзбекистоннинг қазилма  
бойликлари харитаси

Economic minerals of  
Uzbekistan


Карта полезных  
ископаемых Узбекистана








*Корхоналарнинг хорижий инвестициялар билан фаолияти*  
*Enterprises with foreign investment*  
*Деятельность предприятий с иностранными инвестициями*




- Жами рўйхатга олинган корхоналар**  
*Total number of registered enterprises*  
*Всего зарегистрировано предприятий*
- Ишчилар сони ( минг. киши)**  
*Number of workers and office employees*  
*Численность работников (чел.)*
- Маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми (иш, хизмат) 10 млн. сўм**  
*Volume of paid services (production), 10 million sums*  
*Объем производства продукции (работ, услуг) млн. сум*

4-чизма

Сурхондарё вилояти саноатининг тармоқлар таркиби  
(маҳсулот ҳажми бўйича, фоизда)



1991 йил




2003 йил

- Ўқитиш энергетика
- Машинасозлик ва металл қайта ишлаш
- ▨ Ўрмон ва ёғочни қайта ишлаш
- ▨ Қурилиш материаллари саноати
- ▨ Ўқитиш энергетика
- ▨ Ўқитиш энергетика
- ▨ Ўқитиш энергетика
- ▨ Ўқитиш энергетика



## СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА АСОСИЙ ҚИШЛҚ ХЎЖАЛИГИ МАХСУЛОТЛАРИНИ ЕТИШТИРИШ ДИНАМИКАСИ




# СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ

2-карта

МАСШТАБ 1 : 1 000 000

- ШАРТЛИ БЕЛГИЛАР**
- Давлатлар чегараси
  - Вилоятлар чегараси
  - Дарёлар
  - Сувоиборлар
  - Темир йуллар
  - Автомобил йуллар




## ШАРТЛИ БЕЛГИЛАР

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ЭКИНЛАРИ ЭКИН МАЙДОНЛАРИ ТАРКИБИ (фоиз ҳисобида)



Айрим дехқончилик экинлари ялпи ҳосили (2003 й.)



Айрим турдаги қорвачилик маҳсулотларини етиштириш (2003й.)

